

KIRISH

I BOB. INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA MIF VA MIFOLOGIK OBRAZLAR TALQINI.....

I.1. Ingliz adabiyotida miflarning yaratilish tarixi va eng qadimgi miflar....

I.2. O'zbek adabiyotida miflarning kelib chiqishi va mifologik obrazlar tarixi....

II BOB. “BEOVULF” VA “ALPOMISH” DOSTONLARIDAGI MIFOLOGIK OBRAZLARNING QIYOSIY TAHLILI.....

II.1. “Beovulf” va “Alpomish” dostonlaridagi mifologik obrazlarning klassifikatsiyasi.....

II.2. “Beovulf” va “Alpomish” dostonlaridagi mifologik obrazlarning ijobiy va salbiy xususiyatlari.....

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi: O'zbekistonda bugungi kunda madaniy va adabiy merosga munosabat ham tubdan o'zgardi hamda yangilandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan tashabbuslarning natijasi o'laroq yosh avlod kitobga bo'lgan munosabati ancha o'zgardi, xususan, jahon adabiyoti, antik davr adabiyoti, o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarining sevib o'qilishi bunga yaqqol misoldir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev talaba yoshlarning bo'sh vaqtlarini bekor o'tkazmasliklari uchun besh tashabbus bilan chiqdilar. Besh tashabbusning to'rtinchisi "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish"ga yo'naltirilgan bo'lib, yoshlarda klassik, folklor, milliy adabiyotlarga qiziqishni kuchaytirishga qaratilgan.¹ Shulardan kelib chiqqan holda, mazkur bitiruv ishida milliy va jahon folklor namunalari tahlil ostiga olindi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganidek, "Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash, asrash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa"²ga aylandi.

Darhaqiqat, mustaqillik bizga bergan imkoniyatlardan biri uzoq tarixga ega bo'lgan boy adabiy, madaniy va ma'naviy merosimizni to'la ravishda holis tadqiq va tahlil etishga yo'l ochganidir. Shu bois, xalq og'zaki ijodi-folklorning tarkibiy qismi bo'lgan qadimiy asotirlar, shuningdek, mufologik motivlarga tayanib yaratilgan afsonaviy obrazlar talqini ham nihoyat, haqiqiy bohosini ola boshladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 5ta muhim tashabbusi bo'yicha videoselektor. 19 mart, 2019 yil

² Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.:1998, 524 – b.

O'tmishdan yaxshi ma'lumki, o'zlarining uzoq asrlik tarixlari mobaynida turkiy xalqlar ko'p qatlamli madaniy boyliklarni yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Shulardan biri ibtidoiy tafakkur hosilasi bo'lmish o'zbek va ingliz xalqlari mifologiyadir. Mifologiya - ajdodlarimiz badiiy tafakkurining ilk namunalari sanaladi. U millatlarning o'lmas xotirasi, bilimlari qomusi, tuganmas ma'naviy boyligidir.

Miflar, mifologik tafakkurning insoniyat tarixidagi ulkan ahamiyati hech kimga sir emas. "Fan mifdan tug'ilmaydi, - deb yozgan edi taniqli faylasuf olim A. F. Losev, - ammo mifsiz ham yashay olmaydi. Zero, fan doimo miflashgan"³

. Mifologik mushohadalarning badiiy ifodasi og'zaki ijod namunalari hamda ayrim mifologik obrazlar mohiyatida bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, xalq og'zaki ijodida muhim o'rin tutuvchi mifologik obrazlar ajdodlarimizning ibtidoiy dunyoqarashlari bilan bog'liq hodisa sanaladi. Zero, tabiyatning xilma-xil dahshatlari – yong'inlar, izg'irin, bo'ron, qahraton, zilzila, muzlik va jazirama-saraton olis ajdodlarimiz tassavurida zoomorfik va antropomorfik qiyofalardagi ilohiy kuchlar harakati bilan bog'liq, deb qaralgan. Shuning uchun ham xalqimizning qadimiy ertak, afsona va dostonlarida mifologik obrazlar ezgulik va yovuzlik, yorug'lik va zulmat timsoli sifatida tasvirlanadi.

“Mifologik tafakkur tasavvur hukmronligida paydo bo'lgan tafakkurdir, - deydi Ya. Golosovker, - Tasavvur oddiy faoliyat natijasi emas, balki oliy tafakkur shakli, ayni paytda ham ijod, ham bilim xususiyatiga ega bo'lgan shakldir”⁴

Bu hodisa mifologik obrazlar tablatiga ham xos. Shuning barobarida xalqimiz tasavvurida mifologik obrazlar (dev, jin, yalmog'iz kampir, pari, xumo, qaqnus, semurg' va boshqalar) bilan bog'liq bir qancha an'ana-odatlar, marosimlar hamda

³ A. F. Losev. Filosofiya. Mifologiya. Kultura. – M.: IPL, 1991. S.32

⁴ Ya. E. Golosoker. Logika mifa. – M.: Nauka, 1987. S.11-12.

xalqimiz tarixining muhim sahifasi bo'lib kelayotgan arxeologik topilmalar, etnografik ma'lumotlar mavjudki, bu mazkur obrazlar faqatgina badiiyat mahsuli emas, balki o'zlarining tarixiy asosiga ega ekanligidan ham dalolat beradi. Shuga muvofiq, mifologik obrazlarning tarixiy ildizlarini o'rganish, ularning mifologik va tarixiy xususiyatlarini xalq og'zaki ijodi va yozma manbalar asosida qiyosiy tahlil etish o'rinlidir. Mavzuning dolzarbligi ana shu jihatlar bilan asoslanadi.

Tadqiqotning yangiligi: Ingliz va o'zbek xalqlar mif-asotirlari namunalari bo'lgan "Beovulf" va "Alpomish" dostonlarini tarixiy-qiyosiy metod asosida o'rganish va shu yo'nalish bilan mifologik obrazlarning tarixiy-maishiy asoslari, badiiy o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash bilan xarakterlanadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari: Mifologik tafakkur izlari og'zaki ijod namunalarida sezilarli darajada saqlanib qolgan. Aslini olganda, tadqiqotchi xalq og'zaki ijodining qaysi bir turi, janrining tarixiy ildizlarini o'rganishga qo'l urmasin, u albatta, qadimiy tasavvurlar, marosim, urf-odatlar, xalqning mifologik tafakkuriga duch keladi. Shu sababli dunyo xalqlari folklori tarkibidagi barcha janrlarning tub ildizi bir zaminga borib taqaladi.

Qadimiy tasavvurlar, ishonch-etiqodlar izlari va ular tufayli paydo bo'lgan urf-odat, marosim, udumlar u yoki bu darajada hozir ham xalqimiz turmushida, tabiiyki, ularning og'zaki ijodida uchrab turadi. Bu kabi omillarga e'tiborli bo'lish, albatta, ishning muvaffaqiyatli natijasini ta'minlaydi. Shunga muvofiq, bitiruv ishimizning bosh maqsadi - yuqorida qayd etilgan omillarga tayanilgan holda, mifologik motiv va obrazlarning tarixiy ildizlarini tadqiq etishdan iboratdir. Ishda bosh maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni bajarishga harakat qildik:

- badiiy ijod, xususan folklorning shakllanishida qadimgi miflar asosiy manba bo'lganligini ko'rsatish;
- miflarning asosiy semantikasini izohlash;
- mifologiyaning folklor bilan uyg'un jihatlarini sharhlash;

- ingliz va o'zbek adabiyotidagi "Beovulf" va "Alpomish" mifologiyalaridagi yetakchi motiv va obrazlar tahlilida ularning g'oyaviy-badiiy qirralarini tarixiy asoslariga ko'ra o'rganish;

- "Beovulf" va "Alpomish" asarlari misolida totemistik dunyoqarash izlarining badiiy ifodasini mifologik obrazlar misolida tahlil etish.

Ishning subyekti va obykti: Ishni yozishda "Beovulf" va "Alpomish" asarlari ishning obykti sifatida olingan bo'lsa, sub'yekti shu asarlarning mifologik obrazlari hisoblanadi.

Ishning o'rganilganlik darajasi: M. Afzalov, N. Ya. Bichurin, M. Bois, A. N. Veselovskiy, Ya. E. Golosovker, F. Jalolov, K. Imomov, D. S. Lixachev, A. F. Losov, B. Ya. Pronn, B. Sarimsoqov, E. B. Taylor, K. M. Meletinskiy, G. P. Snesev, M. Murodov, N. Rahmonov, B. To'xliyev kabi folklorshunos, etnograf va tarixchi folklor asarlarini ommaviy nashrlarda va turli manbalarda tadqiq etishgan.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati: Ingliz va o'zbek xalqlari mifologiyasi va afsonaviy obrazlari tahliliga bag'ishlangan bitiruv malakaviy ishimizning nazariy xulosalari mif-asotirlarning o'ziga xos xususiyatlari, genezisi va takomilini, shuningdek, Beovulf va Alpomish kabi afsonaviy obrazlar mohiyatini tadqiq qilishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning tuzilishi: Kirish, ikki bob, to'rt fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA MIF VA MIFOLOGIK OBRAZLAR TALQINI

I.1. Ingliz adabiyotida miflarning yaratilish tarixi va eng qadimgi miflar

Tarixchilar tarixiy voqealarning xalq og`zaki ijodida qanday aks etganini o`rganadi. Etnograflarni xalqning urf-odatlarini qiziqtirsa, san`atshunoslar esa folklordagi musiqa, raqs, o`yin va boshqalarni o`rganadilar. Tilshunoslar xalq ijodi tilining lahja va dialektlari bilan, adabiyotshunoslar folklor asarlarining yozma adabiyot bilan munosabatlarini tekshiradi. Folklor asarlari xalq hayotini aks ettiradi, xalqning olam haqidagi tushunchalarini uning didi zavqini ijtimoiy tarixiy siyosiy, falsafiy va badiiy estetik qarashlarni o`zida mujassamlashtiradi.

Folklor – xalqning o`zi haqidagi badiiy xotirasi. Bu xotirani saqlab qolish va kelgusi avlodlarga mukammal holida etkazish, keng ma`noda, an`anaviy folklor va uning hozirgi ahvoli masalasining tarkibiy qismiga taalluqli masala hisoblanadi. Mantiqan olib qaralsa, xalq yashar ekan, uning og`zaki ijodi ham yashaydi. Bu – inkor qilib bo`lmas haqiqat. Ammo xalqning o`zi ham, u yaratgan irod namunalari ham tarixiy tushuncha. Buning ma`nosi shuki, davrlar o`tishi bilan xalqning moddiy ahvoli, ma`naviy qiyofasi ham o`zgaradi. Shu jihatdan qaralsa, qachonlardir xalqning badiiy dahosi yaratgan ma`naviy boylik – xalq og`zaki ijodi yangi yaratilajak irod namunalariga o`z o`rnini bo`shatib berishi tabiiy. An`anaviy folklor xalq xotirasidagina saqlanadi. Folklor janrlari faollik darajasi, omma o`rtasida tarqalish miqyosi bilan bir-birlaridan farqlanib turadilar. Ayrim janrlar maxsus tayyorgarlik ko`rgan shaxslar tomonidan ijro etilsa, ayrim janrlar esa keng ommaviy ijro etiladi. Masalan, dostonlar professional baxshilar tomonidan ijro etilsa, ertaklar ham asosan ertakchilar badiyasi orqali ijro qilinadi.

Folklor hamma zamonlarda ham irod sarchashmasi hisoblanib keladi. Zero, insoniyat ilk ibtidoiy jamoa tuzumi davridan boshlaboq alla, qo`shiq, afsona, ertak va dostonlarda o`zining Yuksak orzu-umidlari, zavq-shavqi-yu, kurashlarini ifodalagan. Xalq og`zaki ijodi o`zining tematik rang- barangligi, yuksak optimistik g`oyalar bilan yo`g`rilganligi, xalq turmushi, urinishi, mehnati yuksak ideallarga

maskanligi, xullas xalq hayotining barcha tamonlar bilan uzviy bog'liqligi bilan ham g'oyatda e'tiborlidir.

Qadimgi tarixning buyuk sivilizatsiyalaridan (eramizdan avvalgi 4 -3 asrlarda)-shumer, assiri, misr, qadimgi yahudiy va forslardan bizgacha etib kelgan buyuk asarlar hozirda insoniyat madaniyatining nodir durdonalariga aylangan.

Ingliz folklori nemis, kelt va xristian manbalari asosida paydo bo'lgan. Aynan shuning uchun ham faqatgina bir necha an'analar butun Angliya bo'ylab tarqalgan, boshqalari esa ba'zi hududlargagina tegishli bo'lib qolgan. Buyuk Britaniya bolalar adabiyoti hech qachon shaxsan bolalar adabiyoti bo'lmagan va undan har doim kattalar adabiyoti uchun metaforalar hamda obrazlar vositasining xazinasini sifatida foydalanilgan. Shuni ta'kidlash mumkinki, tumanli Albionning chuqur tarixi davomida qandaydir g'ayritabiiy odat mavjud: "kattalar" kitobini maroq bilan bolalar o'qiydi, kattalar esa bolalar uchun yozilgan asarlarni ishtiyoq bilan qo'lga oladilar. Shunday "kattalar" bolalar adabiyotiga Angliyaning qadimgi ingliz poemasi "Beovulf" hamda Aylana stol atrofidagi ristarlar haqidagi afsonalar kiradi. Bunda shunday dalilga e'tiborni qaratish joizki, boshqa davlatlar kabi Angliya ham murakkab taroixiy davrlarni boshdan kechirgan. R.Kipling ertagining qahramoni Pak ta'biri bilan aytganda, tumanli Albionaga xudolar kelishgan va ketishgan, ular bilan birgalikda esa turli xalqlarning madaniyatlari ham kelib ketishgan. Qadimgi zamin tarixiga og'ir qismatlar yozilgan: u bir necha bor ishg'ol qilingan hamda talon-taroj etilgan. Avvaliga Stezar boshchiligidagi rimliklar, keyin piktlar hamda skottlar, keyinchalik esa Genget va Gorz boshchiligidagi anglosakslar bostirib kirishgan.⁵

IX asrda anglosakslarning etti grafligi (davlati) qirol Egbert boshchiligida birlashtirilib, Angliya degan umumiy nom oldi. Egbertning o'limidan so'ng anglosakslarga butun G'arbiy Evropani larzaga solgan shimol xalqi – normanlar

⁵ Арзамасева И.Н., Николаева С.А. Детская литература. – М.: Академия, 2000. – С.156

yoki vikinglar bilan kurashishga to`g`ri keldi. Birinchi bo`lib Angliyaga dataliklar bostirib kirib, o`zlarining davlatlarini – Data huquqi viloyatiga asos solishdi. Ularning istilosidan Angliyani Buyuk Alfred xalos qildi (880-893 yillar). Lekin bu g`alaba qisqa muddatli bo`lib, vikinglar Angliya tinchligiga tez-tez rahna solib turadigan bo`lishdi. Faqatgina bir necha yillardan so`ng Data va Angliya qiroli Knut o`limidan so`ng Angliya datalardan xalos bo`ldi va normandlar sarkardasi jahongir Vilgelm boshchiligidagi qo`shinlar istilosi ostida yashadi. Shu vaqtdan boshlab bir necha asrlar davomida Angliyada franstuz hukmronligi ta`siri davom etib keldi. Yagona anglosakscha qahramonlik poeziyasining namunasi sifatida bizgacha xalq an`analari voqeligini saqlab qolgan “Beovulf” dostoni etib kelgan va bolalar uchun minglab hikoyalar hamda qo`shiqlarda dunyo bo`ylab taralgan. Doston asosida badiiy filmlar, multfilmlar suratga olingan. Dostonning syujeti ikkiga bo`linadi, bosh qahramonning shaxsi va uning qahramonliklarining tasviri: birinchi qismda Beovulf botqoq maxluqi Grendel hamda uning qahrli va badbashara onasi bilan olishishi haqida, ikkinchi qismda – ellik yil davomida davlatni baxtli, farovon boshqargani, keyin olovli ajdar bilan olishib, yaralanib umrini oxirlagani haqida bayon qilinadi. Asarning xalq folklorida kelib chiqqan, deyilishiga ham asos bor. Ko`p tadqiqotchilar dostonning bosh qahramoni ayiqdan kelib chiqqan ertak qahramoniga juda o`xshash, bunga uning ismi guvohlik berishini, chunki qadimgi ingliz tilidan kelib chiqqan Beowulf "asalari bo`risi", ya`ni ayiq degan ma`noni anglatishini dalil deb ko`rsatishadi.

Markaziy epizodlarning birinchi qismida qadimgi Islandiya sagalari bilan parallellik kuzatiladi. Bu narsa asarning juda qadimiy ekanligidan dalolat bersa, ikkinchi qismi esa umumolmon ertaklari bilan hamohangdir. Olimlarning aksari qismi “Beovulf” Angliya xristianlikni qabul qilmasdan oldin yaratilgan desa, hozirgi zamon olimlari asar VIII yoki IX asrlarda xristian kliriklari tomonidan yozilgan, degan fikrni ilgari surishadi. Bunga esa, asarning bir butunligiga monelik qiluvchi, Eski Tavrotdan katta hajmdagi katta hajmdagi parchalarning keltirilishi guvohlik beradi.

“Beovulf” alliteration she’rlar shaklida yozilgan. Zamonaviy ingliz tilida “Beovulf” bir necha marotaba tarjima qilingan, lekin Uilyam Morris va Archibald Stronglarning tarjimasi eng zo’r, deb tan olingan.

Xususan, ingliz qiyosiy etnografiyasining yutuqlari asosiga qurilgan "antropologik maktab" (E. Taylor, E. Lang, G. Spenser, J. Freyzer); mif va marosimlarni o’zaro uzviylikda tadqiq etgan kembrijlik mifshunoslarning "ritualistik maktab"i (D. Harrison, F. mifologiya Kornford, A. B. Kuk, G. Marri); ibtidoiy madaniyatning ruhiy asoslarini o’rgangan fransuz etnologlarining "ijtimoiy maktabi" (E. Dyurkgeym, L. Levi-Bryul); mifologik tafakkurning intellektual hodisa sifatidagi o’ziga xosligini yoritib bergan "simvolistik maktab" (E. Kassiyer, V. Vundt, K. G. Yung—Germaniya); "strukturual maktab" (K. Levi-Stross—Fransiya) vakillarining asarlarida miflar turli nuqtai nazardan taxdil kilingan. O’zbek mifologiyasi esa G’. Akramov, B. Sarimsoqov, T. Haydarov, T. Rahmonov (mif va epos), mifolog Jo’rayev, Sh. Turdimov (o’zbek mifologiyasining obrazlar silsilasi va genetik asoslari), Sh. Shomusarov (o’zbek va arab mifologiyasining qiyosiy tahlili) kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.⁶

Mifologiya asotirshunoslik atamasi ham asotirlarni o’rganishni, ham asotirlar to’plamini anglatishi mumkin. Folklorda asotir (mif) deganda olam va odamzod kelib chiqishi va tarixini hikoya qiluvchi muqaddas narrativlar tushuniladi. Tipik asotirlar g’ayritabiiy qahramonlar haqida hikoya qiladi va hukmdor yoki ruhoniylar tomonidan dastaklanadi. Ular tarixiy voqealarning oshirib tasvirlanishi, tabiiy hodisalar shaxslantirilishi yoki biror ritual izohi sifatida shakllanadi. Ular diniy yoki ideallashtirilgan tajribani yetkazish, hatti-harakat modellarini o’rnatish yoki o’qitish uchun tarqatiladi.⁷

⁶ Sarimsoqov B., Epik janrlar diffuziyasi // O’zbek folklorining epik janrlari, T., 1981

⁷ Sagalayev A. Mifologiya, Uralo-altayskaya mifologiya, Novosibirsk, 1991

Hech mubolag`asiz aytish mumkinki, qirol Arturning ristarlari haqidagi afsonalar biror-bir o`spirinni bafarq qoldirmasa kerak. Qirol Artur haqidagi V asrning oxiri VI asrning boshlaridagi asarlarda eslanib, uni anglosakslarga qarshi kurashning boshida turgan afsonaviy qahramon keltlarning tarixiy dohiysi, deb tilga olinadi. Ba`zi asarlarda Artur qiyofasi biroz o`zgartirilib, u qirol Uter Pentagorning donishmand o`g`li qiyofasida gavdalansa, boshqa bir asarda u ristarlik timsoli qilib tasvirlanadi. Ristarlik an`anasi Provandsa, Janubiy Fransiya paydo bo`lgan va boshqa xalqlarga namuna bo`lib xizmat qilgan. Ristarlik muhitida ma`lum kurtuaz – juda muloyimlik, nazokatlik, xushmuomalalik qoidalari paydo bo`ldi – jumladan, ristarlarning o`ta xushmuomala bo`lishi, o`zining go`zal xonimini sevishi, o`zining hamyurtlarini hurmat qilishi va kambag`al bechoralardan yordamini ayamasligi, mard-jasur bo`lishi, muqaddas cherkovga beg`araz hamda sodiq xizmat qilishi. Mana shu g`oyalar ristarlik qo`shiq va dostonlarida o`z aksini topdi. Ingliz tilida birinchi ristarlik romanlari XIII asrda paydo bo`ldi. XIV asrda Shimoliy Angliyada “Arturning o`limi” poemasi yaratildi. Qirol Artur haqidagi dostonlarning bir necha xil ishlanmalari bo`lib, ularning barchasida ertak elementlari mavjud. Romanlar syujetida esa Muqaddas Greale haqidagi diniy-mistik motivlar mujassamlashib ketgan. XIV va XV asrlar – ingliz va shotland xalq she`riyatining gullab yashnagan davri. Qo`shiqlar va balladalar – uning eng ko`p tarqalgan shaklidir.

Ijtimoiy ongning animizm, totemizm, fetishizm kabi qad. shakllari mifologiya bilan chambarchas bog`liq. Ibtidoiy dunyokarash tizimi sifatida shakllangan mifologiya qad. diniy e`tiqodlarning ilk kurtaklari, ajdodlarimizning falsafiy, axlokiy va ijtimoiy qarashlari, olam va odam hayotiga doyr eng sodda ilmiy talqinlar, voqelikni ongsiz-hissiy anglash asosiga qurilgan ramziy-metaforik obrazlar, shuningdek, so`z san`ati, marosimlar tizimi va mifologik tafakkurning turli xil shakllarini o`z ichiga kamrab olgan. U qadimiy odamning borliq olamni idrok etishga doir tasavvur va qarashlarini o`zida jamlagan izchil tizim sifatida ibtidoiy mafkuraning yetakchi g`oyasi bo`lib xizmat qilgan. Mifologiya ibtidoiy

insonning ilmiy, diniy, falsafiy va badiiy karashlarini o'zida mujassamlashtirgan sinkretik hodisadir. Shu bois mifologiya folklor, yozma adabiyot, san'at va ma'naviy qadriyatlarning shakllanishi uchun ilk zamin vazifasini o'tagan;²⁾ miflarni tadqiq etuvchi, o'rganuvchi fan, mifshunoslik.

Mifologik tasavvurlar mohiyatini anglash va ularni ilmiy talqin qilishga bo'lgan ilk urinishlar antik davr olimlari tomonidan amalga oshirilgan. Xususan, Platon asotirlarni falsafiyramziy nuqtai nazardan talqin qilgan bo'lsa, yunon faylasufi Evgemer (miloddan avvalgi 3-asr) mifik obrazlarni o'tmishda yashab o'tgan real tarixiy shaxslarning timsoliy ifodasi deb bilgan. 19-asrning 1-yarmida Germaniyada "mifologik maktab" yuzaga kelgan. Mifologik maktabning nazariy asoslari nemis filologlari aka-uka Ya. va V. Grimmlarning "Nemis mifologiyasi" kitobida bayon kilingan. Ular xalq ertaklarini tax.lil qilish jarayonida qad. mifologik tasavvurlarning epik syujetlar tarkibidagi qoldiklarini aniqlashgan va hindevropa xalqdari mifologiyasi yagona negizga borib taqaladi, degan muhim ilmiy xulosaga kelishgan.⁸

Ana shu nazariyani rivojlantirgan A. Kun, V. Shvars, V. Mannhardt (Germaniya), mifologiya Breal (Fransiya), mifologiya Myuller (Angliya), F. I. Buslayev, A. N. Afanasyev, O. F. Myuller, A. A. Potebnya (Rossiya) kabi olimlar miflarni qiyosiy tadqiq etishgan. Keyinchalik jahon mifshunosligida ko'plab yangi ilmiy yo'nalishlar yuzaga kelgan.⁹

O'smirlar kitobxonligi uchun ko'p bitilgan afsonaviy qahramon, serhimmat qaroqchi Robin Gud haqidagi asarlarning paydo bo'lishi bilan bolalar adabiyotihanda butun bir ingliz adabiyotining rivojlanishida balladalarining ahamiyati katta bo'ldi. Balladalarining kelib chiqishi har xil. Bularga ham xristian afsonalari, ham qadimgi epik qo'shiqlar, ham ristarlik romanlari, hatto antik

⁸ Akramov G., Mifologiya v o'zbekskom narodnom tvorchestve, AKD, Baku, 1980

⁹ Jo'rayev mifologiya, Shomusarov Sh., O'zbek mifologiyasi va arab folklori, T., 2001.

syujetlar ham kiritilgan. Barcha balladalar bayonida lavhalar asosiy o`rinni egallaydi. Real voqea-hodisalar sharoitida mavjud bo`lgan haqiqiy tarixiy shaxslar haqida so`zlovchi tarixiy balladalar eng katta guruhni tashkil etadi. Ballada qahramonlari turli-tuman bo`lib, ular orasida eng mashhuri serhimmat qaroqchi Robin Gud haqidagisidir. Robin Gud haqidagi balladalar XV - XVI asrlar mobaynida ko`chirib yozilgan va bir butun to`plamlarga, stikllarga jamlangan. 1521 yilda nashr etilgan Jon Merining lotincha “Buyuk Britaniya tarixi” asarida Robin Gud hamda uning ajoyib yordamchisi Kichik Jon Sheryurak Richard zamonida yashab o`tganligi haqida ma`lumot bor. Tarixnavisning ta`kidlashicha, Robin Gud yuzlab ko`ngilli merganlar to`dasiga boshliq bo`lib, davlat qo`shinlari ularga hech teng kela olmas ekan. Qaroqchilar faqat boylarni tunashar, kambag`al bechoralarni esa himoya himoya qilishar va ayollarga umuman yomonlik qilishmas ekanlar.

Britaniyaga ko`chib o`tgan german qabilalari orasida yuzaga kelgan inglizsaks qahramonlik eposining bizgacha etib kelgan yagona namunasi “Beovulf haqida qo`shiq”dir. Asar VIII – IX asrlar mobaynida yaratilib, X asr boshlarida yozib olingan. Dostonda majusiylar davriga xos qadimgi german afsonalari aks etgan, lekin keyingi vaqtlarda unga xristian diniy qarashlari ham kiritilgan. Doston uch mingdan ortiq misrali bo`lib, ikki qismdan iboratdir.¹⁰

Dostonda Beovulf obrazi mard, odamlarga yordam berish uchun o`z jonini fido qilishdan ham qaytmaydigan olijanob xalq qahramoni sifatida tasvirlanadi. Doston qabila tuzumi emirilayotgan davrda yaratilgan bo`lib, qator marosimlar tasvirini o`z ichiga olgan. Qirol bilan pahlavonlar o`rtasidagi munosabat, o`likni kuydirib, ko`mish rasmi shular jumlasidandir.

Xalq badiiy tafakkurida reallik xayolot uyg`unligida fantastikaga yo`g`rilib aks etadi. masalan, xalq ertak va dostonlarida go`zal ayollar obrazlarini ko`zdan

¹⁰ Қаюмов О.Чет эл адабиёти тарихи.- Тошкент: Ўқитувчи, 1979 – Б.12-13

kechirganimizda, ularda xalq o'zining estetik idealinigina emas, balki real hayotiy ayolga xos eng yaxshi fazilatlarni ham umumlashtirib aks ettiradi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, dunyoni abstrakt – idealistik va realistik tasavvur qilishning o'zaro qo'shilib ketishi folklorning yana bir o'ziga xos xususiyatidan darak beradi.

Folklordagi ko'plab janrlarda, chunonchi, maishiy-hayotiy ertaklarda, tarixiy va lirik qo'shiqlarda voqelik ham, qahramon ham real ifodalanadi. Folklor janrlariga oid ko'plab asarlarda qahramonni badiiy tasvirlash printsiplari mushtarakdir. Xalq ideal fazilatlar egasi bo'lgan, ommani ergashtira oladigan qahramonningina tan oladi. Shu bois folklor asarlaridagi qahramonlar beqiyos ideallashtirilgan. Folklor asarlarida ijobiy qahramon yozma adabiyotdagidek psixologik xarakteristikalarda emas, balki alohida hayotiy lavhalarda o'z xulqi, xatti-harakati va faoliyati bilangina ko'rsatiladi.

Tarixning eng qadimgi davrlaridan boshlab, inson nafaqat o'zining tirik qolishi uchun kurashgan, balki u o'z qabilasi, urug'ining ham uzoq yashab qolishi tadbirini ko'rgan. Binobarin, alla, ovutmachiq, ertak va topishmoqlar mazmuni avvalo, ongli, kuchli, epchil va chaqqon inson tarbiyasini shakllantirishga qaratilgan. Kishilarning atrofni o'rab turgan olam haqidagi tasavvuri va u haqidagi yig'ilgan bilimlari, hayotiy tajriba asosidagi dono hikmatlari hamda xulosalari bolalarga o'ziga xos tarzda pand - nasihatlar shaklida, ularga tushunarli vositalarda etkazilgan. Shuning uchun ham turli xalqlarning, hattoki bir - biridan juda yiroq masofadagi mamlakatlarning xalq og'zaki ijodida ham juda ko'p mushtaraklik mavjud.

Ko'p xalqlarning eng qadimgi adabiy yodgorliklarida, chunonchi, mif va afsonalarida, ertaklarida - bir - biriga o'xshash tomonlar ko'zga yaqqol tashlanadi: bu jihat ko'proq inson va uning Yer yuzidagi ulug', sharafliligi va vazifasi haqidagi eng yuqori tasavvurlari hisoblangan qahramonlik, aql - zakovat, oliyjanoblik, yaxshilik, go'zallik vasf etilgan madhiyalarda o'z aksini topgan.

Olimlar haqli ravishda, ilmiy tasavvurlarning rivojlanishida, falsafaning, adabiyotning, musavvirlik san'atining, haykaltaroshlik, me'morchilik, musiqa, teatr san'atlarining paydo bo'lishida, miflar o'ziga xos manbaa bo'lib xizmat qilgan, deb ta'kidlashadi. Eng qadimgi ertaklarda turli xalq marosimlari, an'analari, qabila urf - odatlari tasvirlangan. Yoxud ularning ibtidoiy miflar syujeti (voqeligi) bilan bog'liqligini kuzatish mumkin.

Vaqt o'tishi, kishilik jamiyatining rivojlanishi bilan, ertak mif va afsonalarni bolalar "o'zlashtirib" olishdi (yoki qachonlardir kattalar o'zlari uchun yaratgan eng sara narsalarni kichkintoylarga taqdim qilishganidek), keyinchalik esa jahon adabiyotining eng yorqin namunalari bilan bir qatorda "Robinzon Kruzo", "Gulliver", "Gargantuya" kabi asarlarni "o'zlashtirib" olishgan.

Folklorshunoslik folklor janrlarini uch adabiy tur doirasida o'rganib keladi. Tur tushunchasi keng ma'noga ega. U o'z ichiga turli janrlarni qamrab oladi. Turlar voqelikni tasvirlash xarakteriga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Epos voqelikni ob'ektiv holda syujetli-hikoyaviy shaklda aks ettirsa, lirika sub'ektiv holda insonning voqelikdan olgan taassurotlarini, ichki kechinmalarini tasvirlaydi; drama esa personajlar nutqi va harakati orqali hayot lavhalarini aks ettiradi.

Professor B.Sarimsoqovning fikricha, adabiyotdagi uch turni folklore asarlariga ham qo'llash mumkin, lekin bu uch adabiy tur doirasiga sig'maydigan, faqat folklorga xos maqol, topishmoq, turli xildagi aytimlar, olqish va qarg'ishlar alohida tur sifatida ajratib o'rganilmog'i lozim.¹¹

Shu nuqtai nazardan olim o'zbek folklori janrlari tarkibini quyidagi turlarga ajratadi:

1. Epos: afsona, naql, rivoyat, ertak, doston, terma, tarixiy qo'shiq, latifa, lof;

¹¹ Саримсоқов Б. Ўзбек фольклорининг жанрлар состави. //Ўзбек фольклори очерклари. 3 томлик, 1-том. Т.: «Фан», 1988. – Б.64-85.

2. Lirik: sevgi-muhabbat qo`shiqlari, marosim qo`shiqlari, mehnat qo`shiqlari, laparlar;

3. Drama: og`zaki drama, kulgi hikoya, qo`g`irchoqbozlik, askiya;

4. Maxsus tur: oddiy o`tirish olqishlari, qarg`ish, so`kish, maqol, matal, topishmoq va boshqa xildagi iboralar.

An`anaviylik – xalq ijodi mahsuli. U o`zining ijtimoiy-tarixiy manbalariga ega. Ma`lumki, folklorning dastlabki namunalari ibtidoiy jamiyatda yaratilgan, ularda o`sha zamon kishilarining nisbatan qaror topgan urf-odatlari va o`ziga xos dunyoqarashlari aks etgan. Bu hol folklor asarlari shakli, syujeti, obrazlari va motivlarining muayyan barqarorlik kasb etishini ta`minlagan.

Xalqning asrlar davomida shakllangan badiiy zavqi – estetik didi bor, folklor hamisha shu xalqona estetik prinsiplarga amal qilib yashaydi. Bu xalq og`zaki ijodi uchun ob`ektiv qonuniyatdir.

Ingliz xalq og`zaki ijodi millat o`ziga bo`ysundirgan qabilalar adabiyoti hisobiga rivojlangan. Ingliz millatiga mansub og`zaki irod namunalarida aynan shuning uchun ham dunyoning turli xalqlarining folklori namunalariga o`xshash jihatlarni ko`plab ko`rish, uchratish mumkin.

Hindular va ko`chmanchi qabilalar madaniy merosi hisobiga boyigan bu adabiyot haligacha o`zining romantikaga boyligi, haqiqatga yaqin syujeti, oddiy va tushunarli qurilishi, soddagina tili bilan dunyo mamlakatlari xalqlari e`tiborini tortib kelmoqda. Folklor asarlarining og`zaki yaratilishi va og`zaki ijro etilishi ularning o`zgarmas barqaror shakllari – an`analarni yuzaga keltirgan. Masalan, qahramonlik ertak va dostonlari o`rtasida janr e`tibori bilan ma`lum darajada tafovut mavjud bo`lsa ham, badiiy uslub an`anaviy shaklga ega. Xullas, xalq og`zaki ijodi yozma adabiyotdan farqli o`laroq yuqorida tahlil qilingan qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ammo inson tarbiyasida beqiyos ma`naviy-ma`rifiy ahamiyatga ega ekanligi jihatidan yozma adabiyot bilan mushtaraklik kasb etadi.

I.2. O'zbek adabiyotida miflarning kelib chiqishi va mifologik obrazlar tarixi

Mifologiya qadimgi ajdodlarimizning olamni tushunishga va olamda o'z o'rnini anglashlariga bo'lgan intilishlarini aks ettiradi. Zero, mifologiya insonning tabiat va olam haqidagi tasavvurlaridan iborat. Shunga ko'ra, mifologiya insoniyat ma'naviy tarixining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ibtidoiy tafakkur shakli dastavval sinkretik tarzda vujudga keldi. Sinkretik tasavvurlar majmui ibtidoiy davr turmush tarzi va dunyoqarashining umumiy talablari doirasida paydo bo'lgan hodisa sanaladi. Binobarin, analitik fikrlash va abstrakt tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo'lmagan ibtidoiy «... odam o'zini tabiatdan ajratmaydi hamda tabiat kuchlari va hodisalari bilan aynan bir narsa, deb hisoblaydi. Shuning uchun ham odam qator hodisalarni kuzata turib, o'sha hodisalarni o'ziga qaratishga urinadi va ularni yaratishga qodirman, deb o'ylaydi, ikkinchi tomondan esa tabiat kuchlari va narsalar, ya'ni biz jonsiz deb ataydigan narsalarga faqat odamgagina xos bo'lgan qobiliyatni umuman o'zi 9 yashayotgan hayotni ham xos deb biladi». Ibtidoiy odamning bu tarzda fikr yuritishi va xulosa qilishi tabiiy bir hol edi, chunki mavjud tarixiy sharoit va tabiatdagi turli xil hodisalarning o'zak-mohiyatini anglash uchun u tabiat hodisalari haqida hech bo'lmaganda muayyan darajada tasavvur va dunyoqarashga ega bo'lishi zarur edi. Shuning natijasi o'laroq qadimiy ajdodlarimizning tabiat va jamiyat hodisalarini qorishiq holda, ya'ni umumlashma, xayoliy tarzda tasavvur qilishi ko'pgina mifologik qarashlarning kelib chiqishi va tarqalishiga, so'ngra esa ertaklarning yaratilishiga asos bo'ldi.

Mif zaminida naql etilgan afsonalar sinkretik xarakteri bilan farqlanadi. Ularning qadimgi namunalari g'ayritabiiy hodisalar haqida bayn shaklida paydo bo'lgan namunalari urf-odat, marosim, din elementlari, xudolar, pirlar haqida hikoya qiladi.

Din dastlabki shakldayoq ikki xususiyat, o'ziga ishonch zaminidan kelib chiqqan harakatni qamrab olgan. Uning taraqqiyotida vujudga kelgan har ikki xususiyat

e'tiqodga, e'tiqodiy harakat sabab hosil bo'lgan maxsus murakkab shakllar esa sig'inishga aylangan.

Eng avval dinning urug', qabilaviy e'tiqod shakli yuzaga kelib, totemizm, animizm, fetishizm, shomonlikka dahldor tushunchalarni qamrab olgan. Keyinchalik jahonga mashhur islom, budda, sof xristian dinlari paydo bo'lgan. Qabilaviy e'tiqod asosan ibtidoiy jamoa, sinfsiz jamiyatga mansub bo'lib, nisbatan keyin shakllangan islom dini feodal tuzumiga xosdir.

Mifologik afsonalar ilk bor paydo bo'lgan dinning urug', qabilaviy e'tiqod shakliga tegishlidir. Ular alohida guruhni tashkil etib, islomning paydo bo'lishi, rivoji, evolyutsiyasini belgilashda alohida ahamiyat kasb etgan. Alohida turkumni tashkil etgan bu xil afsonalar o'ziga xos obrazlar tizimiga ega. Uni ma'bud, xudolar, homiy kultlar, titan, pahlavon, asotir, pirlar, muqaddas kuchlar tashkil etadi. Ularning har biri o'zida timsoliy ma'no tashib, urug', elat, qabila ishonchi, e'tiqod madadkoriga aylangan.

Afsona namunalari qadimgi turkiy qavmlar orasida yaratilgan tarixiy manbalar, ydnomalar, "Avesto" tarkibi, islom suralarida bizgacha etib kelgan. 10 Mazkur tip obrazlarning ijobiy namunalari ezgulik ato etuvchi tinchlik, osuda hayt, ezgulikni ulug'lash, yvuzlikni qoralash kabi etakchi g'oyalarni ilgari suradilar. Salbiy nusxalari yvuzlik, balo, ofat timsoli sifatida faoliyat ko'rsatadilar.

Syujet tuzilishi ixcham, bir yki ikki epizod asosiga qurilgan, murakkab voqealar g'ayritabiiyligi bilan ajralib turadi. Epizod motivlarda faoliyat ko'rsatgan ilohlar, pir, ma'budlarning g'ayrioddiy qudrati bilan yuz bergan mo'jizalari hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Mifologik afsonalar ma'rifiy ahamiyati, axborot funktsiyasi bilan ajralib turadi. Ibtidoiy tushunchalarga ko'ra g'ayritabiiy hodisalarga ta'sir ko'rsatuvchi ma'bud, ilohlar, voqelikka e'tiqod zaminida paydo bo'lgan irim-sirim, urf-odat, qadimiy dunyqarash, tasavvurlar zaminida yaratilib shakllangan mazkur mifologik obrazlarning har biri ijtimoiy haytga mansub turli xil sohalardan birining boshqaruvchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ular mazmuni, funktsiyasi e'tibori bilan

ikki xil tipga bo'linadi. Birinchi guruhni ma'bud, ilohlar tashkil etadi. Bular: Xumo – baxt tole, davlat xudosi, Anaxita - suv ma'budasi, Xubbi □ suv xudosi, Mirrix – urush, g'alaba xudosi, Mitra – quysh, yorug'lik xudosi, Qayumars, Yima ezgulik tangrisi, Nahit – obodlik, farovonlik ma'budi. Har qaysi ilohiy qudrat muqaddaslashtirilgan, yaratish funksiyasini ado etish bilan farqlanadi.

Ikkinchisini pir avliylar tashkil etadi. Xubbi – Amudaryo piri, CHo'ponota - podachilar piri, Qambar otboqarlar piri, Farhod – quruvchi ustakorlar piri, Xizr - ko'kalamzor, hosildorlik, cho'l piri. Bu xil obrazlar homiylik funksiyasi bilan alohidalik kasb etadilar. Ana shu xudolar, pirlar mazkur tip afsonalarning o'ziga xos tabiatini belgilaydi.

Ilohiy sub'ektlar bilan bog'liq xayliy voqea va hodisalardan tashkil topgan motivlar tizimi mazkur tip afsonalarga mansub detallar, xususan, sirli voqealar, g'ayritabiiy hodisalar o'ziga xos syujet yaratgan. Bu xil syujetlar ma'bud, ma'budalar, pir va ilohlar haqida hikoya qilishi bilan farqlanadi. Ular ibtidoiy tushuncha, suv, olov kultlariga mansub e'tiqodlarni tavsiflaydi, xususan, “Anaxita”, “Qayumars”, “Odami Od”, “Er Xubbi”, “Anbar ona” kabi asotirlar faoliyatidan bahs yuritadi.¹²

Bu xil afsonalarning voqelikka munosabati hikoya hodisalarini haqiqat deb bilishga, uni aks ettirish mezonlari esa bo'rttirish, xayliy uydirmalarga asoslangan. Ibtidoiy tinglovchi uning voqealarini rost deb bilgan, ishonch hosil qilgan. Uydirma tizimidagi real hodisalar, zilzila, to'fon kabi tarixiy haqiqatlar hikoyaga monelik qilmaydi, aksincha, yrdam ko'rsatadi, ishonchni orttiradi.

Talqin uslubi fantastikaga asoslanib, xabar funksiyasini ado etadi. YUz bergan tabiiy hodisalar talqin xayliy voqealarni haytga yaqinlashtirib, ishonchli manba sifatida tinglovchi e'tiborini jalb etgan.

¹² O'zbek folklorining epik janrlari. –T.:fan.1981.104-bet.

Mazkur tip afsonalarning muhim belgilaridan biri uning mo'jiza asosiga qurilganligidir. Maishiy ma'no tashigan mifologik obrazlar asosida tashkil topib shakllangan mazkur afsonalar asosan tabu, magiya, dualizm, shomonlik kabi tushunchalar bilan bog'liq voqealarni naql etgan, otashparastlik dinining yuzaga kelishiga va rivojiga hissa qo'shgan, muhimi, muqaddas narsa, hodisalarni tabulashtirish, sirli vositalarga mansub taqiqning paydo bo'lishiga olib kelgan. Uning asosini ibtidoiy jamoa, urug', qabila udumlari, dastlabki dunyqarash, e'tiqodga moslashgan munosabatlar tashkil etgan. Mazkur afsonalar ibtidoiy hayt tartiblarining emirilishidan keyin, feodal-patriarxal tuzumning dastlabki davrlarida yuzaga kelgan va an'anaga aylangan.

Mifologik afsonalar rang-barang mavzui, o'ziga xos manbalari, turli xil obrazlar, qadimiy e'tiqodlarni xayliy uydirmalarda naql etishi bilan alohidalik kasb etgan.

Mifologik afsonalar ilk bor yaratilganligi, urug', qabila e'tiqodi, ilohlarga topinish, pirlarga sig'inish, sajda qilishni ifoda etganligi bilan farqlanadi. Ana shu o'zgachalik mazkur tip afsonalarning muhim belgilari hisoblanadi.

Bu xil hikoyalarni tashkil etgan motivlar, ilohiy hodisalar yaratish tabiati bilan ajralib turadi. Bu xususiyat tadqiq etilgan afsonalarning xususiy sifatlari, aniqlovchi xossalaridir.

Mazkur turga mansub afsonalarda voqealarning katta suv, o't-olov, to'fon bilan bog'lanishi, g'ayritabiiy kuch, ulkan qiyfa, iloh, pirlar mo'jizasi 12 ma'budlarga ishonch, e'tiqodni orttirgan, ta'sir kuchini oshirib, tashviq etish funksiyasini bajargan. Xullas, mazkur asotirlar oila, urug', qabila, e'tiqodining baynini tavsiflab mazkur tip afsonalarga xos xususiyatni belgilagan. Titan qahramonlar ezgulik yaratuvchi, olov, suv stixiyasi timsoli, hosildorlik ilohlari sifatida paydo bo'lib, o'z vaqtida qabiladoshlarining g'ayrioddiy hodisalarga topinishi, uni muqaddas deb bilishga undab, ishonch e'tiqodni mustahkamlagan, nihoyat, har birining epik an'ana sifatida tashkil topishiga imkon bergan.

Mazkur tip afsonalarning yuzaga kelishida dualizm ta'siri, ezgulik va yovuzlik ilohlari orasidagi doimiy (zid) to'qnashuv, janglar asos bo'lgan. Bu narsa mifologik afsonalarda har ikki ilohlarning o'zaro olishuvi timsolida tavsiflangan. Qayumars ezgulik xudosi, ayni paytda, yaratuvchi, Axraman yvuzlik ilohi, buzib, yo'q qiluvchi sifatida harakat qiladi. Jangda Qayumars engib, tinchlik, osuda hayt, mo'l-ko'lchilikni ato etadi. Afsonalar ezgulik ilohiga e'tiqod, marhamatiga topinishni da'vat etgan. Ulug'vor g'oyalar esa yvuzlikka qarshi chiqib jang qilish ko'lamida naql etilgan.

Bu xil afsonalar qadimiy tarixga ega bo'lib, tabiat va jamiyat hodisalariga ongsiz munosabat zahirida tashkil topib, ijtimoiy tafakkur, turli xil marosim, tushunchalar, homiy kullarning ayrim elementlarini o'zida aks ettirgan. Eng muhimi, ana shu tipdagi afsonalar mifologik tushunchalar, kullarga e'tiqod zahirida tashkil topib, tabiat, ibtidoiy jamiyatga xos belgilarning paydo bo'lish sababini tavsif etish xususiyati bilan ajralib turadilar. Ular sodda tushuncha, g'alati alomatlar sodir bo'lishda omil hodisa sababini aniqlab berishga harakat qiladi.

Mifologiya, avvalo, ibtidoiy jamiyat tafakkurining badiiy in'ikosi sanaladi. Badiiy ijod, xususan, xalq og'zaki ijodining yuzaga kelishi, shaklanishi va rivoj topishida eng qadimgi mifologiya asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mifologiya ibtidoiy madaniyatning negizi, urug'chilik davri mafkurasining hukmron g'oyasi sifatida uzoq tarixiy davrni bosib o'tgan. U ibtidoiy tafakkur mahsuli bo'lib, bu tafakkur ibtidoiy odamlarning borliq olam haqida qabila doirasidagi tasavvurlarga asoslangan ongsiz badiiy tafakkur sanaladi. Mifologiya mif ijodkori uchun ayni haqiqat hisoblanadi. Shunga ko'ra tabiatning turli hodisalaridan qo'rqib va dahshatda yashagan qadimgi odam ulardan o'ziga yupanch izlagan.

Ma'lumki, har qanday tasavvur bu bilim degani emas. Eng qadimgi afsona va rivoyatlarda ham bilimlar, to'g'rirog'i, bilim kurtaklari mavjud. Chunki har qanday afsona faqat inson hayolotining mahsuligina emas, balki u borliq, jamiki olam

sirlari bilan bog'liq. Ana shu bog'liqlikni o'rganish ham muammo. Masalan, dunyo xalqlari, xususan, qadimgi turkiylarning afsonalarida "Tabiatda ulug' va foydali kuchlar-quyosh va suv abadiy bo'lgan o'lka hamda ofat keltiruvchi kuchlar-zulmat va kulfat mangu hukmron o'lka borligi takidlangan. "Avesto" kitobida yozilishicha, ikki olam, ya'ni yaxshilik va yomonlik olami mavjuddir. Demak, mifologik tasavvurlarga ko'ra inson yomonlik bilan kurashish uchun dunyoga kelgan. U yomonlikdan yengilmasligi, aksincha uni yengmog'i lozim.

Mifologik obrazlar - xalq, og'zaki badiiy ijodiyoti, yozma adabiyot va san'at asarlaridagi mifologik negizga ega bo'lgan asotiriy personajlar. Mifologik obrazlar muayyan voqeahodisaning jonlantirilgan timsoliy ifodasi bo'lib, voqelikning mohiyatinimetforik, ramziy va istioraviy holatda o'ziga ko'chiradi va uning shakliy tajassumi hisoblanadi. Mifologik obrazlar ibtidoiy badiiy uydirma-fantaziya mahsuli bo'lib, koinot, tabiat va jamiyatdagi turli-tuman hodisalar, kad. odamtasavvurida mavjud bo'lgan g'ayrioddiy kuchlarning kelib chiqish sabablarini izohlashga xizmat qilgan. Badiiy tafakkurshakllangach, qad. mifologiyannig tarkibiy qismi sanalgan asotiriy obrazlar adabiyot va san'atga ko'chgan. O'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalarining asarlari, "Alpomish", "Kuntug'mish", "Rustamxon" hamda "Go'ro'g'li" turkumiga mansub dostonlar, o'zbek xalq afsonalari va ertaklaridagi mifologik obrazlar shular jumlasidandir. Folklor va yozma adabiyotdagi Mifologik obrazlar badiiy talqinning to'laqonli chiqishi hamda poetik tafakkurning keng qamrovliligini ko'rsatish vazifasini bajaradi. ¹³ O'zbek folklorida "Avesto" asotirlariga aloqador Kayumars, Anaxita, Axriman, dev, pari, ajdar; suv kulti bilan bog'liq Hubbi, Sust xotin, Suv xotin, Chala xotin; shamol "piri" si-fatida tasavvur qilingan Haydar, Yalli momo, Yalang'och ota, Choymomo; xalqtaqvimiga aloqador Ayamajuz, Aziz momo, Ahman Dahman; momaqaldirak, va chaqmoq "egasi" Guldur momo; afsonaviy

¹³ Sarimsoqov B., Zpik janrlar diffuziyasi //O'zbek folklorining epik janrlari, T., 1981

paxlavonlar sifatida tasvirlanuvchi Odami Od, Olang'asar, Doroko'z; yovuz kuchlar haqidagi qarashlarni o'zida ifoda etgan alvasti, yalmog'iz kabi ko'pgina¹⁴ qahramonlar mavjud.

Mifologiya (mif... va ... logiya) — 1) muayyan xalq tomonidan yaratilgan mifologik tasavvurlarning izchil tartibga solingan tizimi, asotirlar majmui. Mas, yunon mifologiyasi, hind mifologiyasi, o'zbek mifologiyasi insoniyat ma'naviy taraqqiyotining ilk bosqichi sifatida muhim amaliy ahamiyat kasb etgan mifologiya ibtidoiy madaniyatning negizi, olamni idrok etishning asosiy vositasi, badiiy tafakkurning ibtidosi hisoblangan. mifologiyaning asosini kad. odamning koinot, tabiat, inson, samo jismlari, narsa va hodisalarning paydo bo'lishi haqidagi asotirlar tashkil etadi.

Mifologiyaning arxaik qatlami quyosh, oy va yulduzlar to'g'risidagi shamsiy, qamariy va astral miflar, olamning paydo bo'lishi haqidagi samoviy miflar, odamzotning yaratilishi haqidagi an-tropogenik miflar, qad. E'tiqodiy qarashlarni o'zida ifoda etgan totemistik, animistik va kult miflaridan tashkil topgan. Dehqonchilik madaniyati yuksak darajada rivojlangan hududlarda esa tabiiy-ik/shmiy o'zgarishlarning ramziy-metaforik talqinlari asosiga qurilgan taqvimiy (kalendar) miflar va ulibtiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar keng tarqalgan. Xususan, Osiris (Qad. Misr), Adonis (Finikiya), Dionis (Yunoniston), Siyovush (O'rta Osiyo) haqidagi mifologik syujetlar shu tariqa yuzaga kelgan. O'zining ilk tarakqiyot bosqichida eng sodda ibtidoiy ishonchlardangina iborat bo'lgan mifologiya insoniyat tafakkurining tadrijiy rivoji davomida olam, jamiyat va tabiat haqidagi asotiriy syujetlar, mifik obraz va tasavvurlar silsilasini o'z ichiga olgan mukammal tizimga aylangan.

¹⁴ Mifologik obrazlar mavjud. Jo'rayev M., Shomusarov Sh., O'zbek mifologiyasi va arab folklori, T., 2001.

O'zbek xalq og'zaki ijodi asrlar osha avloddan avlodga o'tib yashab kelmoqda. Folklor asarlarida xalqimizning asrlar osha shakllangan ma'naviy qiyofasi, donoligi o'z aksini topgan. Ana shunday xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish, kelgusi avlodga yetkazish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Zero, xalq og'zaki ijodi namunalarini yaxshi bilgan odamga hech qanday yovuz g'oyalar tahdid sola olmaydi. Xalq og'zaki ijodi namunalarini yaxshi o'rgangan insonlar o'z zamonining eng ilg'or kishilari, shoir va yozuvchilari bo'lib yetishgani tarixdan ma'lum. Shunday ekan xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish bizning ma'naviyatli, ma'rifatli inson bo'lib shakllanishimizda muhim omillardan biridir.

O'zbek xalq ijodi namunalarida o'zbek xalqining qadim tasavvurlari o'z aksini topgan bo'lib, ular o'ziga xos mifologik motivlarda, mifologik obrazlarda o'z aksini topgan. Bunday obrazlar tizimi xalq og'zaki ijodi asarlari tarkibida ma'lum poetic vazifalarni bajaradi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi asarlari o'ziga xos obrazlar tizimiga ega bo'lib, shunday obrazlar sirasiga mifologik obrazlar kiradi. Mifologik obrazlari insoniyatning ibtidoiy qarashlar tizimi mahsuli bo'lgan miqlar zaminida paydo bo'lgan bo'lib, bunday obrazlar xalq ertaklari va dostonlari tizimida muhim poetik vazifa bajarib keladi. Shunday mifologik obrazlarga ot, tuya, bo'ri, qush, ajdar, dev, pari, epik homiy kabilar kiradi va ular alohida obrazlar tizimini tashkil etadi.

O'zbek folkloridan ayrim namunalarni dastlab yozib oluvchi, tekshiruvchi va nashr etuvchilar XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida yashagan Yevropa sayyohlari, elchilari va olimlari bo'ldilar. A.A.Kushakevich, N.Lyapunova, A.Vasilev, A.N.Samoylovich kabi olimlarning kundaliklari va asarlarida o'zbek xalqining maishiy turmushi, urf-odatlar, og'zaki ijodi bo'yicha muhim qaydlar uchraydi. Chunonchi, xalq qo'shiqlari, masxarabozlik, qiziqchilik san'ati, xalq sayillari haqidagi taassurotlari bayon qilingan; ba'zi og'zaki drama, ayrim ertaklarning tafsilotlari berilgan.

O'zbek xalq ertaklari, topishmoqlari, maqol va matallari hamda og'zaki teatr

namunalarini to'plash va nashr etishda N.P.Ostroumovning faoliyati salmoqlidir. U aslida missionerlik maqsadlarini ko'zlagan bo'lsa-da, bu sohadagi ishlari ob'ektiv ravishda o'zbek folklorini o'rganishga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

Xuddi shu davrlardan boshlab o'zbek folklorining ayrim namunalari dunyo miqyosida ham tanila boshladi. Bunda mojar (venger) olimi va sayyohi H.Vamberining xizmatlari kattadir. U 1867 yilda Leypstigda nashr etilgan «Chig'atoy tili darsligi» xrestomatiya-qo'llanmasida yuzdan ortiq xalq maqollarini, «Yusuf va Ahmad» dostonidan olingan parchalarni nemischa tarjimada o'zbekcha matn bilan birgalikda nashr etdi. 1911 yilda esa «Yusuf bilan Ahmad» dostonining Xorazm versiyasini to'laligicha nashr ettirdi.

XIX asrda ayrim folklor va kitob ishqibozlari, shuningdek, baxshilar tashabbusi bilan xalq dostonlarining ayrim qo'lyozma nusxalari yuzaga kela boshladi. Bunday nashrlar tarjima qilish yoki xalq dostonlari va ertaklarini qayta ishlash natijasida yaratildi. Shu xildagi asarlar jumlasiga «Hikoyati Go'ro'g'li sulton», «Yusufbek bilan Ahmadbek», «Tulumbiy», «Chor darvesh», «Rustami doston», «Tohir va Zuhra», «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Sanobar», «Bo'zo'g'lon», «Bahrom va Gulandom», «Hurliqo va Hamro», «Aldarko'sa» kabilarni kiritish mumkin.

Xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash va tadqiq qilish ishlari asosan, XX asrning 20-yillaridan boshlab jonlandi.

O'zbek bilim hay'atining topshirig'i bilan Toshkent, Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida xalq ijodi yuzasidan kuzatishlar olib borgan G'ozzi Olim Yunusov 1922 yillarda shu joyda tarqalgan ko'plab ertak, qo'shiq, topishmoq va maqollarni to'pladi. Eposshunoslik tarixida birinchi marta Fozil Yo'ldosh o'g'li va Hamroqul baxshidan «Alpomish» dostonining bir qismini yozib oldi. Olim o'z kuzatishlarining natijasini umumlashtirib maqola yozdi va unda o'zbek eposining yuksak namunalari: «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Yusuf va Ahmad» kabi dostonlar haqida ilk bor fikr yuritildi. Shu narsa diqqatga sazovorki, tadqiqotchi «Alpomish»

dostonini jahon adabiyotida muhim o`rin tutgan mashhur «Odisseya», «Iliada» kabi eposlarga qiyoslab o`rganadi.

Xalq ijodi namunalarida xalqning turmush tarzi, ijtimoiy va maishiy hayoti, mehnat faoliyati, tabiat va jamiyatga qarashlari, e`tiqodi va diniy tasavvurlari, inson va olamga nisbatan his tuyg`ulari, badiiy olami, bilim darajasi, baxtli va adolatli zamon haqidagi o`yfiqlari o`z ifodasini topgan. Xalq ijodi qadimdan rivojlanib kelgan . Jamiyat taraqqiyoti va mehnat taqsimotining kuchaya borishi bilan Xalq ijodi janrlariga nisbatan ayrim iste`dodli shaxslarning ixtisoslashuvi osha borgan. Har qanday badiha, ijodiy xatti-harakat, yangilik barqaror an`analari va ustozshogird munosabatlari doirasida ro`y bergan. Bir tomondan, an`analarning o`zi rivojlana borgan, ikkinchi tomondan, har bir ijro yoki amaliyot davomida o`zgartirishlar, yangiliklar kiritilgan, yangi asarlar, variantlar yuzaga kelgan. Qay birlari unutilib, ijro va amaliyotdan tushib qolgan.

Xalq ijodi professional san`atning yuzaga kelishi va rivojida katta o`rin tutadi. O`z navbatida, professional san`at ham Xalq ijodi rivojiga ta`sir ko`rsatib, uni boyitib kelmoqda. Jamiyatda Xalq ijodi namunalarini saqlash va rivojlantirish, yo`qolganlarini tiklash ehtiyoji o`zining estetik talablarini qondirish, yaxshi yashash va hayotini mukammallashtirishga bo`lgan intilishidan kelib chiqqan. Bugungi kunda Xalq ijodini saqlash va rivojlantirish uchun katta imkoniyat va sharoitlar yaratilgan. Umumdavlat miqyosidagi muzeylar va qo`riqxonalarining ishlayotganligi, Xalq ijodi namunalarining ilmiy o`rganilishi va nashr etilayotganligi, ko`plab folkloretnografik ansamblarning mavjudligi, badiiy havaskorlikni yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilayotganligi buning tasdig`idir.

Xalq og`zaki badiiy ijodi (folklor). Inson nutqi shakllanishi bilan xalq og`zaki badiiy ixodining qad. tur va janrlari ham qorishiq holda yuzaga kela boshladi. Kishilik badiiy tafakkurining turli shakllarini o`z ichiga olgan bu sinkretik ijod namunalari ibtidoiy inson maishati va faoliyatining barcha jihatlarini bilan mahkam

bog'langan bo'lib, qad. odamlarning diniye'tiqodiy va mifologik qarashlarini, boshlang'ich ilmiy (empirik) bilimlarini, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlarini aks ettirgan. Biroqqad. folklorning bunday namunalari bizgacha yetib kelmagan, balki ularning izlari va ayrim qismlari xalqning yashash va turmush tarzi bilan bog'liq turlituman tasavvur va qarashlarida, xalq urfodatlari, udumlari, marosimlari, bayramlari tarkibida, ba'zi bir yozma manbalarda, keyingi davrlarda yozib olingan folklor asarlarida qoldiq holdagina saqlanib qolgan. Yozuvning yuzaga kelishi natijasida xalq og'zaki badiiy ijodi bilan tarixan bog'liq adabiyot xam paydo bo'ldi. Badiiy matnning ayrim ijodiy (yozuvchi, shoir, dramaturg) faoliyat bilan bog'lanishi, muayyan ijodiy harakat sifatida yozuv bilan mustahkamlanishi adabiyotning asosiy xususiyati bo'lib, insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotidagi o'ziga xos burilish nuqtasidir. Adabiyot o'zining taraqqiyoti davomida folklordan barcha estetik tushunchalar va badiiy shakllarni olganligiga qaramay, o'ziga xos badiyat qonuniyatlari asosida mustaqil ravishda rivojlana bordi. So'z san'atining mustaqil turi sifatida folklor ham u bilan birgalikda yonmayon yashab keldi. Chunki kishilik jamiyatining umumiy estetik talabi va ehtiyoji uzoq yillar davomida faqat adabiyot bilan emas, balki folklor bilan ham mustaxkam bog'liq bo'ldi. So'z san'ati bu 2 turining mustaqil rivoji, adabiyot va folklor asarlari yaratilgan ijtimoiy muhitdagi farkdar, ijodiy jarayonning xilmaxilligi ularning o'zlariga xos spetsifik xususiyatlarini yanada kuchaytirdi. Natijada adabiyot va folklor o'zlariga xos muayyan estetik tizim, janrlar tarkibi, badiiy xususiyatlarga ega bo'lgan so'z san'atining mustaqil 2 turi — og'zaki va yozma turi sifatida rivojlanishda davom etdi.¹⁵

Yaratuvchilik va ijrochilik jarayonining og'zakiligi va unda ko'pchilikning ishtirok etishi (jamoaviylik) xalq og'zaki badiiy ijodining asosiy xususiyatidir. Uning an'anaviylik, o'zgaruvchanlik, variantlik, ommaviylik, anonimlik

¹⁵ Abdullaev R.O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi, T., 1990

(muallifining noma'lumlighi) kabi ko'pdanko'p belgilari folklorga xos ijodiy jarayonning ana shu bosh xususiyati doirasida namoyon bo'ladi. Folklor namunalari og'zaki yaratilib, ajdodlar va avlodlar aloqadorligida og'zaki tarqalar hamda ommaviy repertuardan keng urin olar ekan, bunda badiiy shakllarning barkarorligi (turg'unligi), matndan matnga o'tuvchi umumiy o'rinlarning qat'iylashganligi, o'xshash sayyor syujetlarning ko'pligi imkoniyat yaratadi. Har bir ijodkor (kdyta ijod) va ijroda an'anaviy asardagi nimalardir o'zgaradi, nimalardir avvalgisidan boshqacharoq talqin etiladi, nimalardir qo'shiladi yoki tushib krladi. Bunday o'zgaruvchanlik ijtimoiy muhit, maishiy sharoit, eshituvchilar talabi va ijrochi (ijodkor) salohiyatiga bog'liq. Lekin har qanday o'zgarish, ijro davomidagi qayta ijod asrlar davomida kagiylashgan puxta an'analar doirasida sodir bo'ladi. Demak, jonli og'zaki an'ana doirasidagi badihago'ylik folklor asarlarining ko'p variantlarida tarqalishiga olib keladi.

Xalq og'zaki badiiy ijodining deyarli barcha janrlari turlituman ijrochi va ijodkorlar faoliyati bilan bog'liq. Iste'dodli ijodkorlar folklor namunalarini saqlab qolish va keng ommalashtirish bilan birga og'zaki an'analar doirasida uni yanada mukammallashtiradilar, ba'zan yangilarini ham yarata oladilar. Biroq bunda barkarorlashgan va qat'iylashgan jamoaviylik an'analari yetakchilik qiladi. Ayrim janrlar (masal, topishmoq, maqol kabi) ommaviy xarakterga ega bo'lsa, ya'ni ularning namunalaridan har bir kishi ozmiko'pmi ayta olsa, boshqalarining (mas, doston, og'zaki drama singari) ijrosi muayyan tayyorgarlikni talab qilgan. Shu tariqa xalq og'zaki badiiy ijodi namunalarini yaratish va ijro etishda o'ziga xos kasbiy ijodkorlik yuzaga kelgan. O'zbek folklorida ijodkor va ijrochilarning kasbiylashuvi nihoyatda rivojlangan. Baxshilar, ertakchilar, askiyabozlar, qiziqchilar, dorbozlar ijrochiligi professional san'at bo'lib, uni egallash uchun

bo'lg'uvchi ijodkor maxsus tayyorgarlik ko'rishi va muayyan ustozdan ta'lim olishi zarur bo'lgan.¹⁶

Afsona, rivoyat, lof, latifa, maqol, topishmoq, ertak, doston, qo'shiq, assiya, og'zaki drama va boshqalarlar xalq og'zaki badiiy ijodining asosiy janrlari bo'lib, ular so'z san'ati namunalari bo'lish bilan birga muayyan ijtimoiymaishiy funksiyalarni ham ado etadilar. Mas, ho'p mayda, ho'shho'sh, tureytüre, chureychurey kabi qo'shiq turlari mehnat jarayonlariga aloqador bo'lsa, yoryor, o'lan, lapar, kelin salom, yig'iy'o'qlov, badik, suyet xotin singarilar har xil marosimlar bilan bog'liqdir. Folklor janrlari g'oyaviybadiiy xususiyatlari bilan emas, balki ijro usullari (yakka ijrochilik, jamoaviy ijrochilik, sozli, sozeiz kabi) jihatidan ham bir-birlaridan farq qiladilar. Ularning biri kuylash uchun, ikkinchisi aytib berish, hikoya qilish uchun, boshqasi ko'rsatish, namoyish etish uchun yoki ham kuylash, ham o'ynash, ham aytish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Folklor janrlari qanchalik xilmaxil, ba'zan o'ta funksionallashgan va qat'iy vazifador bo'lishiga qaramay, ular yaxlit badiiy tizimni tashkil etadi.¹⁷

Folklor janrlari ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot bilan uzviy bog'liq. Xalq hayotidagi tarixiy o'zgarishlarga ko'ra, ular ham o'zgara borgan. Qay bir janrlar yoki namunalar butunlay yo'qolgan, yangilari yuzaga kelgan. Shuning uchun ham ularda ko'p qatlamlilik mavjud bo'lib, uzoq ijro davomida bir necha davrlar o'z izini qoldirgan. Janrlarning bosqichli taraqqiyoti va tarixiytipologik nukta nazardan qaraganda, eng kdd. davrlarda ko'pchilik xalklarda miflar, urug' va qabilalar haqidagi afsona va rivoyatlar, topishmoq va maqollar, olqish va qarg'ishlar, mavsummarosim folklori namunalari, mehnat qo'shikdari keng tarqalgan. Keyingi davrlarda esa, ertaklar, eposning arxaik shakllari yuzaga kelgan.

¹⁶ Jirmunskiy V . M ., Zarifov X. T., *Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos*, M., 1947; Obidov T., *Dorbozlar qissasi*, T., 1963

¹⁷ O'zbek folklori ocherklari, 1— 2j.lar, T., 1988—1989

Patriarxalug'chilik munosabatlarining yemirilishi va ilk davlatlarning shakllanishi davrida qaxramonlik dostonlari yaratilgan. Keyinroq romanik epos, lirik va tarixiy qo'shiqlar, og'zaki drama, latifa va loflar paydo bo'lgan.

Xalq og'zaki badiiy ijodi milliy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida juda katta ijtimoiy qiymatga ega. U xalqning tarixi, maishati, urf odatlari, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari, orzuumidlari haqida keng bilim beradi. Unda xalq badiiy didi, voqelikka nisbatan xalqona estetik munosabat ifodalangan. Estetik sezgilar rivojida, go'zallikni, badiiy so'z qadri va qimmatini, ona tili boyliklarini his qilishda uning ahamiyati beqiyosdir. Folklor professional san'at turlari — adabiyot, teatr, musiqa, kino va boshqa taraqqiyotida muhim rol o'ynadi.

II BOB. “BEOVULF” VA “ALPOMISH” DOSTONLARIDAGI MIFOLOGIK OBRAZLARNING QIYOSIY TAHLILI

II.1. “Beovulf” va “Alpomish” dostonlaridagi mifologik obrazlarning klassifikatsiyasi

Qadim anglo-sakson qabilalari hayotiga oid voqealar tarixidan hikoya qiluvchi ilk asar - "Beovulf" ("Beowulf") qahramonlik dostoni hisoblanadi. Doston matni 3000 misradan iborat bo'lib, qadim ingliz (anglo-sakson) tilida ëzilgan. Ilmiy manbalarda dostonning yaratilgan vaqti haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Ba'zi olimlar uni VI-VII asrlarda yaratilgan deyishsa, boshqalari VIII-IX asrlarda ilk bor yozib olingan, deya e'tirof etishadi. Aslida dostonning X asrga mansub yagona qo'lyozma nusxasi bizgacha etib kelgan. Hozirda u Britaniya muzeyida saqlanadi. Qo'lyozma 1815 yidda ilk daf'a nashr qilingan. Doston matnining akademik nashri R.C.Hembers tarafidan tayyorlanib, o'tgan asrda bir necha marta qayta nashr etildi.

"Beovulf" dostoni ikki qismdan iborat. Dostonning debochasidagi voqealar anglo-saksonlarning qadimiy vatani bo'lgan Daniya tarixiga mansub bo'lib, qirol Skild Skefing va uning nabirasi qirol Xrotgar davrida sodir bo'lib o'tadi. Qirol Xrotgar o'zining zafarli yurishlaridan so'ng katta obro'-e'tibor qozonib, saroydagi bazmu-jamshidlar uchun hashamatli qasr qurdiradi. Qasrga "Xeorot" deb nom beradi va o'z ritsarlari bilan ayshu-ishratda yashaydi. Ammo bu xushnud kunlar uzoqqa cho'zilmaydi. Qirollik yerlarida paydo bo'lgan Grendel nomli bahaybat mahluq o'n ikki yil tajovuz qilib, Xrotgarning saralangan bahodir ritsarlarini nobud etadi. Bu shum voqeadan xabar topgan qo'shni gautlar qabilasi pahlavoni ritsar Beovulf Xrotgarga yordamga keladi. Beovulf yakkama-yakka olishuvda odamxo'r mahluq Grendel ustidan g'alaba qozonib, uni o'ldiradi. O'g'lining o'limidan xabar topgan Grendelning onasi yarim tunda paxlavon Beovulfga xujm qiladi. Olishuvda Beovulf Grendelning yovuz onasini ham o'ldiradi va Daniya mamlakatini ular

tajovuzidan xolos etadi. Shon-shuhratga ko'milgan bahodir Beovulf vataniga qaytib, gautlar¹⁸ yerida podsho bo'ladi.

Dostonning ikkinchi qismida ellik yil gautlar¹⁸ qiroli bo'lgan pahlavon Beovulf keksaygan chog'ida vataniga tajovuz qilgan ajdaho bilan olishib, o'zi ham og'ir yarador bo'ladi. Jarohatdan zaharlagan Beovulf hayotdan ko'z yumadi. Dostondagi voqealar davomi pahlavon Beovulfni tantanali ko'mish marosimi va motam rusumlari bilan yakunlanadi.

"Beovulf" dostoni epik janrga mansub asar bo'lib, unda vatan himoyasi va qahramonlik tuyg'ulari yuksak badiiy pafosda tarannum etilgandir. Doston matni va uning til xususiyatlari ham o'ziga xos ifodali tarzda bo'lib, VI-VIII asrlarda shakllangan ingliz (anglo-sakson) adabiy tilining barcha imkoniyatlarini o'zida mujassam qilgan.

Ayniqsa matnda tez-tez uchrab turuvchi takrorlar va parallelizmlar, ona tabiat go'zalligi tasvirlari hamda ifodali metaforalarning betakror qo'llanishi o'quvchini o'ziga rom etadi. Masalan, asar matnida beg'ubor dengiz "whale-road" (nahanglar yo'li), "playground of winds" (shamollar maydoni); keskir qilich "light of battle" (jang chirog'i); go'zal ayollar esa "peace-weaver" (osoyishtalik to'quvchilari), "dwelling-ornament" (uy bezagi) kabi ma'nodor metaforalarda ulug'lanadi.¹⁹

Xulosa qilib aytganda "Beovulf" dostoni ham o'sha davrga mansub fransuzlarning "Roland haqida qo'shiq", ispanlarning "Sid haqida qo'shiq", olmonlarning "Nibelunglar haqida qo'shiq", ruslarning "Igor polki jangnomasi", o'zbeklarning "Alpomish" kabi qahramonlik dostonlari qatorida turadi va o'rta asrlar Evropa adabiyotining ilk namunasi sifatida ulug'lanadi. "Beovulf" dostonidan so'ng, ya'ni X-XI asrlarda yaratilgan "Finsburg yaqinidagi jang" (The

¹⁸ Gautlar – hozirgi Shvetsiyaning janubida yashagan skandinav qabilalaridan biri.

¹⁹ Chambers R.W. Beowulf. New York: Cambridge Univ. press, 1959. – XVII, 629 p.

Fight ot Finnsburg), "Valdere haqida afsona" (Waldere), "Maldone jangi" (The Battle of Maldon) qahramonlik dostonlari va "Ekseter kodeksi" (Exeter Book) deb nomlanuvchi qo'lyozmadan iborat she'rlar majmuasi ham anglo-saksonlar hayoti tarixidan hikoya qiluvchi ilk asarlar sirasiga kiradi.²⁰

Folklor har bir ijodkorga o'z yo'li, uslubi, o'zligini, o'q tomir ildizini topishga yordam beradi.

Lotin Amerikalik ulug' adiblardan biri Xorxe Luis Borxes: «Adabiyot mif bilan boshlanib, mif bilan tugaydi», – deydi. Buni boshqacharoq qilib aytadigan bo'lsak, har qanday san'at, jumladan, badiiy so'z san'ati ham folklor bilan boshlanib, folklor bilan birga taraqqiy etadi.

Folklor va tarix chindan ham dolzarb mavzu. Zero, epos, ya'ni og'zaki ijod namunasi bo'lgan dostonlar shunchaki badiiy asar emas, balki xalqning tarixi, madaniyati, urf-odat va an'analari, tafakkur tarzini o'zida mujassam etgan milliy qomus hamdir.

Birgina «Alpomish» dostonini olib qaraylik. Mazkur doston nafaqat o'zbek, balki dunyo dostonchiligida alohida mavqega ega, tarixiy asoslari qadimiy, badiiy jihatdan yuksak epik ijod namunasi hisoblanadi.

Bu doston ko'p va xo'p o'rganildi. Biroq hali bu dostonning jahon folklorshunosligidagi o'rni, mifologik asoslari, badiiy qatlamlari takror va takror o'rganilishni talab etadi.

Dostonning boshlamasidagi ilk jumlagi e'tibor beraylik. Doston: «Burungi o'tgan zamonda, o'n olti urug' Qo'ng'iroq elida Dobonbiy degan o'tdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan o'g'il farzand paydo bo'ldi. Alpinbiydan tag'i ikki o'g'il paydo bo'ldi: kattakonining otini Boybo'ri qo'ydi, kichkinasining otini

²⁰ Alekseev MP. Poema o Beovulfe. // Istoriya angliyskoy literaturi – M: L., 1943, tom 1, vip. 1, s. 17-23.

Boysari qo‘ydi. Boybo‘ri bilan Boysari – ikkovi katta bo‘ldi. Boysari boy edi, Boybo‘ri esa shoy edi, bul ikkovi ham farzandsiz bo‘ldi». – deb boshlanadi.

«Burungi o‘tgan zamon» bu mifologik tushunchaga ko‘ra ibtidoaning boshlanishi, xaosning kosmosga aylanishidir. Spuning uchun ertaklarimiz ham «Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, burun o‘tgan zamonda», deb boshlanadi. Siz aytganday, bu har qanday millatning raqamlardan xoli, sof, badiiy tarixidir. Gap bu erda noreallik, hayotiy asosga ega bo‘lmagan badiiy to‘qima haqida ketmayapti. Balki yarmi afsona, yarmi haqiqat, mifologik qobiqqa o‘ralgan o‘tmish, tarix haqida hikoya qilayapti. Ertakdan farqli o‘laroq dostonni ijro etuvchi baxshi ham, tinglovchi ham undagi voqealar chin haqiqat ekaniga ishonadi. Qolaversa, doston ajdodlarning muqaddas xotirasi, shonli tarixi haqida. Bu shonli voqealar bir necha avlodlar tomonidan kuylanib kelingan, avlodlarga etkazilgan va ijro etilayotgan zamonda ham davom etmoqda.

«O‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot eli» yuqoridagi o‘tmish tarixiga yanada hayotiylik bag‘ishlaydi. Bu tarix ma‘lum bir urug‘, ayni bir paytda butun boshli elat o‘tmishi bilan aloqador ekanini urg‘ulamoqda.

«Dobonbiy» so‘zi dovon, yuksaklik ma‘nosida keladi. Bu ism shunchaki tanlanmagan. Hayotda katta ishlarni amalga oshirgan, yuksak marralarga erishgan qahramonning ramziy timsoliy obrazidir. Dostonda bu obraz chizgilari go‘yo mukammal emasdek, doston boshlamasida eslanib, keyin unutilib ketadigan ismdek tuyuladi. Biroq, bu obrazga keyingi jumlar, keyingi voqealar oydinlik kiritadi. Alpinbiydek Alpning dunyoga kelishi o‘z-o‘zidan bo‘lmagan. Unga Dobonbiy chekkan zahmat, erishgan donishmandlik sabab bo‘lgan.

Boybo‘ri bilan Boysari ismlaridagi «Boy» old qo‘shimchasi ularning shajarasi kimlardan ekanini ko‘rsatib turibdi. Biroq e‘tibor qilsak, Dobonbiy, Alpinbiy sanalib, keyin ikki juft ism sanalayapti. Bu bejizgami?

Folklorda egizaklar tushunchasi mavjud. Har ikkala ism ana shu egizaklar haqidagi tushunchaning ma‘lum darajadagi badiiy talqinidir. Odatda egizaklar haqidagi mifologik tasavvurda egizaklarning biri katta, ikkinchisi kichik bo‘ladi.

Ona urug'chilik bilan bog'liq tasavvurlar ustivor qonuniyat kashf etilayotgan davrda urg'u ko'proq kenjaga berilib, ko'p holatlarda bevosita ona bilan bog'lanadi. «Kenja botir», «Uchinchi o'g'il» kabi ertaklar, «Alibek bilan Bolibek» dostonlari buning yorqin misolidir.²¹

Faqat bu erda urg'u Boysariga emas, aksincha Boybo'riga qaratilgan. Alpomishning ham Boybo'rining farzandi ekani bejizga emas. Demak, bu dostonda ota urug'chilik bilan bog'liq tasavvurlar bo'y ko'rsata boshlaganidan dalolat beradi. Biroq dostonning boshqa, jumladan, Barchin, Qaldirg'och, Surxayil kampir, Tovka oyim obrazlari talqini shuni ko'rsatadiki, dostonda ona urug'chiligi bilan bog'liq tasavvurlar ham hali barqaror turibdi.

Alp – qahramon tug'ilishidan oldin ota-onasining farzandsizligi aslida ramziy ma'noga ega bo'lib, gap bu erda saltanatni mustahkamlaydigan, parokanda elni yana birlashtiradigan yangi avlod – Alpning tug'ilishi haqidadir.

«Alpomish» dostonida millatning bo'linishi, parokandaligi Boysarining qalmoq eliga ko'chishi orqali ifodalanadi. Zero, turkiy xalqlar tarixning ma'lum bir davrlarida ulkan saltanat, hokimiyat va cheksiz hukmronlikka ega bo'lgan. O'zaro bo'linishlar, urushlar va boshqa sabablar tufayli bu buyuk saltanatga putur etgan. So'ngra xalqni, millatni birlashtira olgan Alpomishga o'xshash yangi avlod – Alplar tug'ilib, turkiy xalqlarning tarix sahnasidagi oldingi yuksak mavqeyi yana qo'lga kiritilgan. Xuddi shu voqealarning badiiy ifodasi «Alpomish»ning asl mohiyatini tashkil etadi.

E'tibor qilsak, «Alpomish»da Alpinbiydan qolgan, ko'lda zang bosib yotgan kamonni faqat Hakimbek ota oladi. Alplik kamonining ko'lda zang bosib yotishi undan oldingi avlod o'z vazifasini oxirigacha bajara olmaganidan dalolat beradi. Bunday vazifani yangi avlod – Alplargina oxiriga etkazadi.

²¹ <http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/jabbor-eshonqul-folklor-millatning-boqiy-tarixi.html>

Epik ijoddagi alplik tizimiga turlicha yondoshuv mavjud. Xorijlik olimlar Lord Raglen, Karl Rayxl, Ojal O'g'zular o'z tadqiqotlarida «Qahramonlik qolipi», o'zbek folklorshunoslari esa «alplik tizimi» degan atamani ishlatadi. Ya'ni folklordagi qahramon shunchaki qahramon emas, balki uning jasorati, mardligi, qahramonligini bo'rttirib turadigan jihatlar mavjud. Bu jihatlar dostonlarda epik qolip shaklida keladi. Yq'ni qahramonlar ma'lum bir tizimga amal qilishadi. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Dostonning ilk jumlasidayoq ajdodlarimizning shonli o'tmishi bilan bog'liq tasavvurlar mustahkam o'rin olgan. Demak, mazkur holat dostonning mifologik qatlami, yuzaga kelish davriga ham ma'lum darajada aniqliklar kiritadi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, xalqning ko'p ming yillik tarixi, tafakkur tarzi haqida juda boy va qimmatli ma'lumotlar beradi.

Xalq og'zaki ijodi namunalarida voqelikning juda mubolag'ali tasviri qahramonlarga munosabatda hayot haqiqatiga zidlikni kuzatish mumkin. "Alpomish" dostoni ham mubolag'aviylikda boshqa dostonlardan qolishmaydi. Ammo asardagi ijtimoiy munosabatlarni kuzatadigan bo'lsak, asar voqeligining oddiy xayotiy turmushga naqadar yaqinligini anglash mumkin. Bu xususiyatni biz syujetning dinamik rivojini ta'minlab turuvchi konfliktlarda yaqqol kuzatamiz. Asarning ilk konfliktini olaylik: Boybo'ri va Boysari to'yga boradi. To'yda ularni izzat-ikrom bilan mehmon qilishmaydi. Sababi ularning farzandi bo'lmay, xalq ularning to'y-tamosha qilib bu hurmatni, nozu ne'matlarni qaytarishiga ishonmaydi. Bu asardagi birinchi konflikt bo'lib, syujetdagi barcha voqelikning boshlanish omili hisoblanadi. To'yda Boybo'ri va Boysaribiylarga bo'lgan munosabat hech ham sun'iy emas, aksincha kishilarning munosabatida tez-tez ko'zga tashlanuvchi tabiiy hodisadir.

Dostonning butun syujeti uchun tugun bo'luvchi keyingi hodisaga e'tibor qilaylik. Zakot so'rash voqeasi va undagi konflikt ham judayam tabiiy tarzda tasvirlanadi. Umuman Boybo'rining zakot olish kerakligi haqida o'y surishi: "ukam gunohkor bo'lib qolmasin" deya ish tutishi voqealarini esga olaylik. Bir

qarashda, saxiy insonning uch xislatidan faqatgina mol dunyo bilan bog'liq bo'lgan zakot to'g'risidagi Hakimbekning gapidan ilg'agan insonni ko'rsak, ikkinchi tomondan o'z o'rinda ukasining oxiratidan qayg'urayotgan akani ko'ramiz. Mulohaza yuritilsa, shakllanib kelayotgan hokimiyat boshlig'ining o'z haqqini qarzdorlarga eslatib o'tishdagi ilk qadamini ham sezishimiz mumkin bo'ladi. Bu esa davlatchilik qonuniyatlarini yodga solishlik bilan bir qatorda, ijtimoiymunosabatlardagi asl ziddiyat (kuchlining kuchsiz bilan aloqasi)ni ham namoyon qiladi. Dostonda Boybo'ri bilan Boysarilarning o'zaro munosabatlari, kelishmasliklari, johilliklari, bemehrliklari va bu holatning sabablari haqida alohida to'xtalinmagan. Ammo asardagi yondosh tasvirlar bilvosita shu xulosani chiqarishga xizmat qiladi.

Chunonchi, Boybo'ring Barchin choparlariga po'pisasida eldoshlar, ini, bo'lg'usi kelin takdiriga hukmdor og'aning mutlaqo beparvoligi ko'zga tashlanadi: "Bundan ketgancha, Qo'ng'irot muzofotidan o'tgancha, Qalmoq viloyatiga yetgancha, yo bir o'tinchiga, yo bir podachiga, yo cho'lda yurgan cho'ponga "Biz Barchinning chopari bo'lar edik" deb og'zingdan chiqarsang, odam buyuraman, keyiningdan quvib yetadi, boshingga qamchi chotadi, badaningni bo'zday qilib yirtadi, opkelib dorga tortadi..." Ushbu ifoda juda chiroyli tasvir bilan berilgan. Agar taqiq buzilsa, choparlar boshiga tushishi mumkin bo'lgan og'ir kunni imkon qadar ta'sirli, ravshan gavdalantirmoq uchun dostonda badiiy so'z qudratidan g'oyat oqilona foydalanilgan.

"Alpomish" dostonida odam kontseptsiyasi g'oyat puxta belgilangan. Asarda hayotiy vaziyat va qahramon shaxsiyatidan kelib chiqib, har bir obraz tasviriga differensial yondashiladi, ular zimmasiga imkoniyatidan ortiq yuk ortilmaydi. Qalmoqlarning qo'ng'irotlarni siquvi, Barchinga tahdid qilib ularning orini toptayotgani haqida xabar bermoqchi bo'lgan choparlarning arzlarini, na otlarini ayab qilgan fidoyiligining ulkanligayu ular erishgan natijaning arzimaslighi aks etgan samimiy tasvirlar bu jihatdan, ayniqsa, diqqatga sazovor. Dostonning shu o'rnida odamning odamdan farqi yorqin aks ettirilgan. Choparlar shuncha joniqish,

urinish, zo'riqish bilan 90 kunda arang Boysunga yetib kelishadi. Oddiy odamning fidoyiligi, samimiyligi, astoydilligiga qaramay, faoliyatining natijasi o'ziga — oddiyligiga yarasha bo'ladi. Favqulodda ish g'ayrioddiy odam qo'lidan keladi xolos. G'ayrioddiy xususiyatlarga ega odamning bemalolligi, ba'zan, hatto tepsa-tebranmasligining sababi shunda. Chunki, u boshqalarning ming urinib qilolmaganini bir zarb bilan hal etishiga ishonadi. O'ziga ishonch bunday kishida og'irlik, qanoat tuyg'ularini shakllantirgan. Dostonda shu jihatlar g'oyat nozik hisobga olingan.

“Beovulf” va “Alpomish” dostonlarida uchraydigan miflarni klassifikatsiya qilar ekanmiz, qadimgi mifologik motivlar va obrazlarga asosan holda ularni uch qavatli olam modeliga bo'lish mumkin.

Bu uch qavatli olam modelini gavdalantiradigan obrazlar:

-*Tangri*;

-*Yer-suv*;

-*O't-suv*;

-*Tog'*;

-*O'rmon* kul'tlaridir.

Bu obrazlar kul't bo'lgani uchun ham mifologik mazmunga ega va bu ikki asarning yozma adabiyot sifatida shakllanishida muhim vazifa bajargan. Dostonlardagi kul't xususiyatini saqlagan mazkur obrazlar kosmogonik va etnogonik mifga asos bo'lgan. Mifning maqsadi ham shunda. O'z mohiyatiga ko'ra, mif olam qurilishining turli unsurlarini va olamning shakliy qiyofasini ramziy tasvirlashdan iboratdir. Masalan, “Alpomish” da dunyo deb atalishi olamning qanday bichim olgani borasida juda mufassal so'z yuritilgan. Ko'klar va ko'klar olami ichida quyosh, oy, yulduzlar singari ilohiy qudratlarning ham yaratilishlariga oid turli hodisalar ko'rsatilgan va har xil nuqtai nazarlar keltirilgan.

II.2. “Beovulf” va “Alpomish” dostonlaridagi mifologik obrazlarning ijobiy va salbiy xususiyatlari

Bizga ma'lumki, san'at va mifning tili bitta – ramzlarga asoslanadi. Har ikkalasini ham ramzlarni sharhlab o'rganish mumkin. Momoqaldiraqni nayza deya tushunish bu miflarni yaratgan ibtidoiy ajdodlarimiz uchun tashbeh emas, shunday tushunilgan, qabul qilingan. Xalq og'zaki ijodini tadqiq etuvchi bunday metod miflarni, ramzlarni sharhlashni inson ruhiyatini tadqiq qilish bilan birga qo'sha oldi. Garchi ushbu metod yagona bo'lsa-da, miflardagi ramzlarni sharhlashda har xil qarashlar dunyoga keldi.

Mif – insonning faqat o'tmishi, ajdodlarning xayolparastligi emas, balki ularning kayfiyati va o'zi anglab etmagan, biroq miyada singib yotgan kechinma va taassurotlaridir. Mifga ajdodlarning jo'n xomxayollari yoki cho'pchaklari sifatida emas, inson ruhiyatining in'ikosi sifatida qarash zarur, shu sababli ham mif o'tmish sadosi emas, u kecha, bugun va ertaning mujassami, inson ruhiyatining manzarasidir. Mif odam bilan birga yashaydi, odam yashar ekan u o'zicha mif yaratadi. Biroq hamma ham o'z miyasi yaratgan mifni “o'qiyvermaydi”.

Amerikalik olim Erix Fromm hamma bilishi shart bo'lgan umumiy til – ramzlar tili mif, umuman badiiyatni sharhlashda eng zarur va yagona vositalardan biridir, deya ta'kidlaydi.

Bugun ibtidoiy davr deb baho beriladigan paytlarda ajdodlarimiz bizga qaraganda yuz karra shoirroq bo'lganlar. Minglab yillar avval ajdodlarimizning tafakkur tarzi “poetik mushohada” tarzida edi: ular hayotlari va tabiatdagi har bir narsani tasavvur qilgan tushunchalarining ramzi sifatida qabul qilardilar. U paytlar osmon, suv, ko'kat, quyosh, oy, yorug'lik va zulmatning joni bor deb tushunilgan; kunduz o'rnini tun egallarkan, ezgulik va yovuzlik kurashi ketayapti deb o'ylashgan.

Mif va adabiyot mavzusi yozma ijod paydo bo'lgandan buyon faylasuflar, olimlar, shoirlarning eng qizg'in munozara maydoni bo'lib kelgan. Mifning

adabiyotga ta'sirini aniqlovchi, tahlil qiluvchi turli-tuman oqimlar paydo bo'ldi; bu oqimlarning bir qismi adabiyotni real hayotga, real tasavvurlarga yaqinlashtirish, undan mifologik tasavvurlarni surib chiqarish tarafdori bo'lsa, bir qismi adabiyotni mifga yaqinlashtirish masalasini ko'tardilar. Insoniyat aqli mifdan, mifologik olamdan, ajdodlarning ilk xayoliy dunyosidan qanchalik uzoqlashib va taraqqiyot zinalaridan ko'tarilgan sayin bu mavzu yana ham qizg'inroq tus oldi. Yuksak texnika taraqqiyoti asri bo'lgan XX asrda ham fizika va ximiyaning yutuqlariga qaramay mifologiya yana adabiyotning asosiy mavzusiga aylandi. Dunyo adabiyotining durdonalari hisoblangan «Ulis», «Yolg'izlikning yuz yili», «Qo'rg'on», «Yusuf va uning birodarlari», «Pedro Paramo», «G'azab va Shovqin» kabi asarlar buni tasdiqlaydi. XVIII-XIX asrdagi tanqidiy, romantik realizmlarni o'zlashtirgan, insonni o'rganishda o'zigacha bo'lgan boy tajribadan unumli foydalangan XX asr adabiyoti inson dunyosi va ruhiyatini tahlil qilar ekan, ya'ni u o'zigacha bo'lgan adabiyotlardan ham ko'ra inson ruhiyati va qalbiga ko'proq yaqinlashar, uni tadqiq etar ekan, ana shu ruhiyat va qalbda ilk insonlar dunyosi kabi mifologik timsollarga duch keldi. SHundagina mifni faqat ifoda usuli, badiiylashtirish vositasi sifatida emas, balki insonni tahlil va tadqiq qiluvchi poetik til sifatida qabul qilish boshlandi. SHu sababli bugun mif va adabiyot aloqasi haqida gap ketganda, bu aloqani faqat syujetlashtirish va tasvir usuli, badiiylilik vositasi sifatida emas, inson ruhiyatini aks ettiruvchi poetik til sifatidagi o'rniga katta ahamiyat berish kerak. Zero, Tomas Mann, Frants Kafka, Joys kabi adiblar asarlarida biz ilgari ko'nikkan parallel mifik syujetlar emas, balki ichki va tashqi olamdagi mifologik jarayon modelining yaratilishiga urg'u berilgan.

Shu sababli ham bizning asrimizda adabiyotda miflar ma'lum ma'noda yangilandi va inson ruhiyatiga kirib borilgan, uning ong qatlamlari kashf etilgan, adabiyot haqiqiy insonshunoslikka aylangan sayin sivilizatsiya yangi bir cho'pchak deb qaragan mifga ehtiyoj shunchalik kuchaydi.

Mif, aytish mumkinki, badiiy ijodda uslub imkoniyatlarini kengaytirdi, poetik mushohadaga erkinlik berdi, uni falsafiy ko‘lam bilan to‘ldirdi. Ma’lumki, mif olamning yaralishi, xaosning kosmosga aylanishi, tartibsizliklarga tartib berilishi, umuman, dunyo va insonning yaratilishi haqidagi tasavvurlar yig‘indisidir. Bu shu bilan ifodalanadiki, asarda ham mifdagi dunyo kabi yozuvchi dunyosi yaraladi; ya’ni keng olam haqida asarda faqat shu yozuvchiga xos ma’lum g‘oya singdirilgan va shu g‘oya ifoda etilgan dunyo yaraladi. Ana shu kichik olam yozuvchining katta olam haqidagi mifologik mushohadasining mahsuli o‘laroq paydo bo‘ladi. Mifni shunchaki qaytarish, bayon qilish – bu hali ijod emas. G‘arbda ham ilg‘or adabiyot tug‘ilishidan ilgari miflarni shunchaki qaytarib yoki ozgina o‘zgartirishlar kiritib, mifologik ruhdagi asarlar e’lon qilgan yozuvchilar ko‘p bo‘lgan, biroq bu yuksak badiiy adabiyotning ilk bosqichi edi. Uning yuqori bosqichi yozuvchi asarida, u yaratgan dunyo modelida aks etadi. Qadimgi odamning dunyoning yaralishi, ilohiyot, atrofni o‘rab turgan kuchlarning ta’sirida tug‘ilgan tasavvuri bilan yozuvchi yaratgan dunyo tasavvuri o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik mifologiyani poetikaga aylantirishdagi eng muhim jihatdir. Miflar insonning koinotdagi o‘rniga ma’lum ma’noda javob bergan, javob topgan. Adabiyot esa haligacha bu masalaga tugal oydinlik kiritganicha yo‘q. Bugungi adabiyot ham insonning o‘rnini va vazifasini (missiyasini) aniqlashga urinar ekan, tabiiy ravishda miflar bilan uyg‘unlashadi va mifologik tafakkur qonuniyatlariga amal qiladi.

Xalq dostonlari kompozitsiyasida mifologik qush epik qahramonga muhim xabarni yetkazadi. Bunga misol sifatida “Alpomish ” dostonidagi g‘oz obrazini keltirishimiz mumkin. “Alpomish” dostonining Po‘lkan shoir va Ergash Jumanbulbul o‘g‘lidan yozib olingan variantlarida Ho‘y tog‘i Alpomishga Alloh tomonidan madad keluvchi makon sifatida talqin etilgan: “Ho‘y degan tog‘da juhudlarning qishlog‘i bor edi. Shu juhudlardan Shakaman degan bir juhud bor edi, o‘zi mergan edi. Kasbi tog‘larda qushlar ovlab yurar edi. Bir kuni toqqa borib, bir

g'ozni otdi. G'oz yiqilmay, chappa uchib, boshi aylanib, Alpomish yotgan zindonga tushib ketdi. Lekin Alpomish mast bo'lib, besh yil o'tganini bilmay qoldi. Shunday qarasa, bir g'oz qizil qonga bo'yalib, o'z holi bilan ovora bo'lib yotibdi. Alpomishning zindonda yotgani ham ko'ziga ko'rinmay, g'ozning ahvoliga qarabdi. Shunda g'ozga xudodan amr bo'lib, hazrati Jabroil g'ozning tilidan muhrni olib, odamday so'zga kirdi. Shunda Alpomish bilan g'oz bir-biriga qarab savol-javob so'zlashdi.²²

*“ O'zginamni baland tog'dan uchirdim, Pok bo'lmasa ajal to'nin bichirdim,
Nima qilay xudoyimning hurmati, Bo'zlab qolgan Boybo'ring hurmati,
G'arib bo'lgan yolg'izliging hurmati, Qilgan gunohingni endi kechirdim.”*

G'ozning Alpomishga bergan javobidan ko'rinadiki, g'oz Alloh tomonidan Alpomishga yuborilgan yordamchi, elchi bo'lib, u qahramonga muhim xabarni yetkazuvchi mifologik obrazdir:

“Arza xatim, jonivor, senga omonat,
Omonatga qilma, jonvor, xiyonat,
Ho'y tog'idan o'tgin sog'u salomat,
Ushbu arzim Boybo'riga omonat,
Xudoyim o'zingni qilsin salomat.”²³

Xalq dostonlarida baxt va tole qushi obrazi ham mavjud bo'lib, u asar kompozitsiyasida tanlangan shaxsni, podshohni aniqlash vazifasini bajaradi. Xalq dostonlarida keluvchi ushbu qush Semurg', Anqo va Humo qushining ta'sirida

²² Нодира Собирова.Эпик ҳомий образининг Хоразм дostonларидаги талқини.//Ўзбек тили ва адабиёти.2011-йил,3-сон,69-бет

²³ Нодира Собирова.Эпик ҳомий образининг Хоразм дostonларидаги талқини.//Ўзбек тили ва адабиёти.2011-йил,3-сон,69-бет

yaratilgan bo'lib, u dostonlar kompozitsiyasida baxt va omad yaratish vazifasini bajaradi. Ular o'zbeklarning ko'hna dunyo qatlamida yashagan ajdodlari shuurida yuzaga kelgan muqaddas qush, omad va tole haqidagi tushunchalarning o'zaro uzviy bog'lanishida kelib chiqqan badiiy umumlashmalardir. Bu xil qushlar dostonlarda inson saodati, adolatli shoh haqidagi ideal g'oyalarining badiiy tajassumi, orzu-istaklarining o'ziga xos badiiy ifodasidir. Adolatli shoh haqidagi ideal g'oyalar xalq tafakkurida qayta ishlanadi va badiiy obrazlarda jilolanib, o'ziga xos motivlarda aks etgan. Xalq dostonlarida Semurg' qushni uchirish va tolei baland kishini (boshiga qo'nish) aniqlash hodisasi syujet voqealarining mantiqiy uzviyligini ta'minlab, bosh qahramon taqdirida o'zgarish yasash, uni odil shoh sifatida belgilash vazifasini ado etadi.

Quloq soling Boysaring tiliga,
Ko'chib ketay men ham Kashal eliga.
Davlat qo'nsa bir chibinning boshiga,
Semurg' qushlar salom berar qoshiga,
Banda ko'nar tangri qilgan ishiga,
Quloq soling Boysari nolishiga.

Ot kulti qadimgi kishilarning turmish-tirikligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, otlarni xonakilashtirish, ulardan ish hayvoni sifatida ho'jalikda foydalanish davomida yuzaga kelgan. Arxeologik qazilmalardan topilgan yarim ot, yarim odamsifat ishlangan rasmlar, hali-haligacha ekin maydonlarida, polizlarda otning kalla suyagining qo'riqchi sifatida qo'yilishi va boshqalar ibtidoiy kishilar ongida saqlanib qolgan ot kulti haqidagi e'tiqodning timsoli hisoblanadi. Qadimgi Baqtriyadagi Zariaspi, Xorazmdagi Xazorasp singari geografik joy nomlari aslida ot kulti bilan bog'lanadi. O'zbek xalq dostonlarida G'iro't, G'irko'k, Boychibor, Jiyronqush, Majnunqush kabi epik ot obrazlarining g'oyat katta o'rin tutishi ham shundan. Demak, tabiat va hayot haqida yuzaga kelgan ibtidoiy tushuncha va e'tiqodlar animistik va totemistik qarashlarni vujudga keltirdi. Bu qarashlar o'z

navbatida ilk bor to'qilgan ertak va afsonalarning motiv hamda syujetlarini tashkil etdi.

“Beovulf” asarining bosh qahramoniga nazar soladigan bo'lsak, bir necha qiziqarli faktlarga ega bo'lish mumkin. Beovulf tarixiy qahramon bo'lmasada, bu qahramon obrazida bir qancha tarixiy voqealarga aloqador belgilarni kuzatish mumkin. Misol tariqasida shimoliy german qabilalariga mansub bo'lgan qabilalarning o'zaro va boshqa janubiy- german qabilalar bilan bo'lgan urushlar va urush sabablari epizodlarini olish mumkin. Xuddi shunga o'xshash tarixiy o'xshashliklar asar davomida qahramonlarni tariflashda, voqealar rivojining ketma ketligi va bahslarda kuzatish mumkin. Masalan – gautlar qiroli bo'lmish Xigelakni datlar qiroli Xoxilayk bilan bir qancha o'xshash jihatlar mavjud yoki asarda tasvirlangan franklarga qarshi yurish voqeasi Grigoriy Turkning 515-yildagi yilnomasida qayd etilganligi buning yaqqol dalili bo'la oladi. Asarda tasvirlangan geografik ma'lumotlarga ko'ra esa VI asr o'rtasida anglo-sakson qabilalarining joylashuv xaritasini bilib olish mumkin.

Ammo shuni ta'kidlab o'tish joizki, ushbu asar bizga kelganga qadar bir necha adabiy bosqichlarni bosib o'tdi va shuning uchun ham qator o'zgartirish va turli omillar ta'siriga uchradi. Natijada, “Beovulf” asari ingliz folklorining bir emas balki bir necha zamon qatlamiga mansub epos sifatida bizgacha yetib keldi. Jumladan, xristian dinining anglo-sakson qabilalari tomonidan qabul qilganligi, xristian cherkovining ushbu asarning ilk ko'rinishidagi tarkibiga sezilarli darajadagi o'zgarishlar kiritishiga sabab bo'ladi. Misol uchun, xristian dini uchun nomunosib bo'lgan asar tarkibidagi aqidaparastlikka xos ilohiy ismlar, xudolar, german mifologiyasi qahramonlari dostonidan olib tashlandi. Asardagi bunday omillar xristian dinini qabul qilishdan oldin yaratilgan asarlar uchun tipik xususiyatdir. Ammo, xristian dininig anglo-saksonlar tomonidan qabul qilinishi asarning ham dinga mos yo'sinda talqin etilishiga sabab bo'ladi. Misol uchun, yovuz maxluq Grendel – dengizlar maxluqi bo'lmish Kainning ajdodi deb talqin etilgan.

Dostonning ma'lum epizodlarida Avel (Nuh,Noy) ismi ko'zga tashlanadi, bu esa bibliada ko'rsatilgan suv toshqini to'g'risidagi bashoratini nazarda tutadi. Hattoki, bosh qahramon Beovulf ham xristianlarning ilohiy qahramoni darajasiga ko'tarib, ushbu qahramon xalqi uchun, vatani uchun o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, olovpurklovchi ajdarho bilan mardlarcha kurashgan komil inson xristian diniga mos yo'sinda gavdalandiriladi.Bu bilan hatto Beovulfning antik adabiyot qahramonlari bilan o'xshash jihatlaari mavjud bo'lgan deyish ham mumkin.

“Beovulf” asari barcha boshqa anglo-sakson poeziyalari kabi qadimiy germanlarning alliteratsiya yo'sinidagi she'riy shaklda yaratigan. Ammo, boshqa anglo-sakson poeziyalaridan farqli ravishda “Beovulf” dostonida sinonimlar, metaforalar va o'zlashtirma gaplar kabi adabiy- poetik belgilar, namunalarning ko'plab misolini kuzatishimiz mumkin.

Bizgacha to'liq holda yetib kelgan yagona “Beovulf” dostoning nusxasi 1000 yilga to'g'ri keladi. Ammo asar ancha oldin yaratilgani ma'lum. Asar yaratilishi davrigacha german qabilalari orasida feodal tuzumga xos bo'lgan xususiyatlar paydo bo'la boshlagan. Ammo poema epik arxaizatsiya xosdir. Undan tashqari, asarda obyektiv reallikni tasvirlashda ba'zi subyektiv qarashlar mavjud bo'lgan deyish ham mumkin. Chunki, asar asosida o'ylaydigan bo'lsak, “Beovulf”ning dunyosi bu ritsar va qirollarning ayshu-ishrat, bazmu-jamshidda o'tadigan umr dunyosi kabi tasvirlangan. Dostonda mavjud bo'lmagan qirollik va ularning qirollari ham taassvirlangan va bosh qahramonning o'zi ham tarixiy prototipga ega bo'lmagan degan xulosaga kelish mumkin. Asar yaratilish davrida insonlar olovpurklovchi ajdarho, odamxo'r va maxluqlarning mavjudligiga ishonishgan. Shuning uchun ham asarda bu kabi mifologik qahramonlarni tez-tez uchratishimiz mumkin. Dostondagi urush va kelishmovchiliklar esa o'zining tarixiy aksini olib tasvirlangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Asar shunisi bilan qiziqki, unda Angliya va uning oldi yoki yaqinida bo'lgan yerlar to'g'risida hech qanday ma'lumot berilmagan. Ammo “Beovulf”da german qabilalaridan tashqari yana qator Yevropa mamlakatlariga mansub qabilalrning tasvirini uchratish mumkin.

Ushbu eposda folklor motivlari ham juda ko'p. Misol uchun, asarning boshida "topilgan bola" Skild Skeving haqida so'z boradi. Bu bolakay qo'yilgan kema Daniya qirg'oqlariga kelib to'xtaydi. O'sha paytda Daniya - qiolsiz qolgan mamlakat xalqi sarosimada bo'ladi. Aynan o'sha bolakay ulg'ayib, mamlakatning qiroli bo'ladi va o'z sulolasi asoschisiga aylanadi. Skildning o'limidan so'ng xalq o'z minnatdorchiligini bildirib, kemani turli qimmatbaho narsalar bilan to'ldirib kema kelgan joyiga yuborishadi Bunday motivdagi syujetlar tipik ertaklarga xosdir. Beovulf kurashgan bahaybat maxluqlar esa skandinav mifologiyasiga xos belgilarni aks ettiradi. Olov purklovchi ajdar esa g'arbiy va shimoliy german qabilasi mifologik ertaklari uchun xos bo'lgan xususiyatdir. Beovulfning yoshligi tasvirlanar ekan, to o'ttiz bahodirning kuchiga to'la ega bo'lmaagunga qadar, bosh qahramon tambal va ishyoqmas deb gavdalantiriladi. Shunday bo'lsada, Beovulf mard, jasur, o'z so'zida turuvchi, xalq va insonlarning manfaati uchun o'z hayotini ham xavf ostiga tayyor turuvchi qahramon sifatida tasvirlanadi. Bosh qahramonning rostgo'yligi va haqiqatparvarligini dostonidagi Beovulf va boshqa qahramonlar o'rtasidagi bahslar davomida kuzatish mumkin. Misol uchun, Beovulf va Unfert orasida bo'lib o'tgan bahsda, Unfert bosh qahramonni atay izdan chiqarishga harakat qilganida ham, Beovulf uning so'zlariga mardlik bilan javob qaytaradi va uning dushmanlik ruhida bo'lish xohishi yo'qligini ma'lum qiladi. Kuchlarni sinashda esa Beovulf jang yo'lini emas, balki haqiqiy dushman maxluq Grendel bilan kurash maydonida kurashishni taklif etadi. Ushbu dostonning ko'plab jarayonlari va tomonlari xalq folklori ijodiga borib taqaladi. Asarda nafaqat ingliz xalqining ajdodlari va ularning yahash tarzi yoki geografik joylashuvi, balki o'ziga xos milliyligi, xalq folklori xususiyatlari, o'tmishi, dini, dunyoqarashi va madaniyati to'grisida yaqqol ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Bu esa o'z o'rnida "Beofulf" dostoni ingliz adabiyoti tarixida nechog'lik muhim tarixiy va milliy ahamiyat kasb etishining yana bir dalilidir.

"Beovulf" asarida mifologik obraz sifatida daxshatli maxluq tasvirlangan. Bu negativ mif ijobiy obraz bo'lgan Beovulf bilan qarama-qarshilikda yaratilgan bo'lib,

mifologiyaning eng asosiy motivlaridan bir-yovuzlikka qarshi bo'lgan ijobiy obrazlarning g'alabasi dostonning asosini tashkil qiladi. Beovulfda 30ta askarning kuchi bo'lib, u bu daxshatli mahluqdan ancha kuchsiz bo'lsa-da, uning aql-zakovati va vatanni ozod qilishga bo'lgan ishtiyoqi uni g'alabaga undaydi.

*The strength of my body. Themselves they beheld me
When I came from the contest, when covered with gore
Foes I escaped from, where five I had bound,
The giant-race wasted, in the waters destroying
The nickers by night, bore numberless sorrows,
The Weders avenged (woes had they suffered) Enemies ravaged; alone now with
I shall manage the matter, with the monster of evil,
The giant, decide it. Thee I would therefore Beg of thy bounty,
Bright-Danish chieftain, Lord of the Scyldings, this single petition:*

Demak, dostonlarda aksariyat ijobiy obrazlar bilan birga yozuv personajlar-ajdah, dev, yolg'iz, jodugar kampir, odamxo'r kabi bir qator obrazlar silsilasiga ham duch kelamiz. Ularda hikoya qilinishicha olis safarda xatarli yo'llarni bosib o'tayotgan mard va jasur pahlavon qarshisidan kutilmagan va kutilgan hollarda vahima kelbat mahluq chiqadi. Doston mazmunida pahlavon albatta, mahluqni yengib, o'z vatanini ozod qilib, eson-omonlikda yashaydi va albatta, shunday bo'ladi ham. Xalq og'zaki ijodida haqiqatning qaror topishi uning intihosidan darakdir.

*Hrothgar sees no way of escape from the persecutions of Grendel.
Beowulf, the Geat, hero of the poem, hears of Hrothgar's sorrow, and resolves to
go to his assistance.
With fourteen carefully chosen companions, he sets out for Dane-land.
The vessel sails like a bird.
In twenty four hours they reach the shores of Hrothgar's dominions.
They are hailed and challenged by the Danish coast guard who is struck by
Beowulf's appearance.*

Shu o'rinda bir mulohaza, ertaklar, xalq dostonlari va afsonalarini dev yoki mahluq obrazlarisiz tasavvur qila olmaymiz. Mahluqlar o'zlarining g'ayritabiiy tasvirlari bilan kishini o'ziga jalb etadi. Mahluq haqidagi ilk tasavvurlar eng qadimgi miflar markazida turuvchi va g'ayritabiiy xususiyatlar bilan talqin etiluvchi afsonaviy dev obrazi asosida yaratilgan.

Xalq og'zaki ijodida uchraydigan mahluq obrazining qiyofalarini tasvir jihatidan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

I.Arxaik qiyofa: jahon folklorshunosligida, xususan I. Frezer va Ya. Propp asarlarida xalq og'zaki ijodidagi antropomorfik obrazlar hayvonlarning madaniylashuvi oqibatida deb, sharhlanadi. Bu sharhda asos bor. Jumladan, mahluq obrazida mavjud bo'lgan odamho'rlik va g'ayri tabiiy qiyofa ana shu madaniylashuv bilan bog'liq. Bizningcha, qadimgi ilon va odamxo'r yaratilqlar keyinchalik madaniylashuv oqibatida dev yoki mahluq qiyofasini olgan. Proppning ta'kidlashicha, nafaqat obrazlar, balki xudolar ham yirtqich hayvon qiyofasidan asta-sekin odam qiyofasiga kirib borgan emish. Mahluq obrazi ham avval yirtqich hayvon qiyofasida bo'ladi, keyinchalik odam qiyofasiga kirgan. Hatto, turk asotirlaridagi yerni va odamlarni dunyoga keltirgan Tiamat dev ham ba'zi afsonalarda g'oz, o'rdak, ba'zilarida ilon-ajdaho shaklida tasvirlangan.

Mahluqning ikki boshi, to'rt boshli, shohli, jundor, dumli bo'lishi, uchib yurishi, qush qiyofasiga kira olishi quyin ko'tarib kelishi devlistik tasavvurlar mahsuli bo'lib, mahluq obrazining yirtqich hayvon yohud ajdahodan kelib chiqqanini ko'rsatadi. Shuning uchun ham mahluq dostonlarimizda yozuvlik kuchi timsolida tez-tez uchraydi. Dev va ajdahoning o'zaro yaqin ekanligi dostonlarda, xususan, "Beovulf"da qurbonlik marosimida ham ko'rinadi. Ajdahoga qurbonlik qilinayotgan qiz yoki bola dev yeyish uchun olib ketgan odamlar bilan aynan bir narsadir.

Masalan,

The warriors abided, till a certain one gan to

*Dog them with deeds of direfullest malice,
A foe in the hall-building: this horrible stranger
Was Grendel entitled, the march-stepper famous
Who dwelt in the moor-fens, the marsh and the fastness;
The wan-mooded being abode for a season
In the land of the giants,
when the Lord and Creator Had banned him and branded.
For that bitter murder,
The killing of Abel, all-ruling Father
The kindred of Cain crushed with His vengeance;
In the feud He rejoiced not, but far away drove him
From kindred and kind, that crime to atone for, Meter of Justice.
Thence ill-favored creatures, Elves and giants, monsters of ocean,
Came into being, and the giants that longtime Grappled with God;
He gave them requital. ("Beowulf", Grendel the Murderer, 25)*

Ya.Propp ajdarning uchib yurishi va ko'p oyoqli bo'lishini epik chatishma hodisasi deb sharhlaydi. Dev obrazining ajdardan kelib chiqqanligi dev haqidagi mifik qarashlar ibtidosi -"xudolar" ga borib taqalishini inkor etmaydi. Jahon folklorshunosligida qayd qilinishicha, Zevs-burgut shaklida, Anibus – bo'ri shaklida, Germos-qanotli qush shaklida tasavvur qilingan. Xalq og'zaki ijodidagi dev obrazi o'ziga ajdar xususiyatlarini saqlagan holda odam qiyofasiga kirishi madaniylashgan davrga to'g'ri keladi.

Dev bilan ajdarning dostonlardagi tasvirida bir-biriga yaqinlik mavjud. *"Ajdahoning og'zi minordek, kallasi chinordek ekan, og'zini g'ordak ochib, yerga tushibdi-yu, Beovulfni yutmoqchi bo'lib, domiga tortibdi", yoki "og'zidan o't purkayotgan dev haybat bilan yaqinlashibdi"*. Ikkila tasvirda ham yaqinlik mavjud.

II. Madaniy qiyofa: Odamlar madaniylashib, tabiat oldidagi ojizliklaridan qutila borgan va koinot sirlarini anglab borgan sari xudolar ham odam qiyofasini ola

boshlagan. Devlar arxaik qiyofalarini saqlab qolgan bo'lsalarda, yirtqichlik alomatlaridan butkul qutilmaganlar. Devlarning gurzi ushlab jang qilishi yakkamayakka jang lavhasini anglatadi.

III. Timsoliy qiyofa: ertak va dostonlarimiz badiiy ijod namunasi bo'lganligi uchun mahluq obrazi muayyan timsol sifatida ma'lum vazifani bajaradi.

Masalan, "Beovulf" folkloridagi mahluq Beovulfning qahramonligini bo'rttirish bilan birga, xalqning azob - uqubatlarini yengish orzusi timsolini ham bajaradi. Folklor asarlaridagi mahluq obrazi turli g'oya, maqsad va falsafiy tushuncha timsollari bo'lib keladi. Shu bilan ertak, dostonlar yaxshilik va adolat bilan intiqosiga etadi. Inson kelajakka intilib yashar ekan, hayot intihosi haqidagi o'ylar uni goh oshkora, ko'p hollarda esa pinhona mushohadaga undaydi. Shubhasiz, inson uchun intihodan ko'ra ibtido sirliroq. Shuning uchun fan-texnika olamidagi olamshumul kashfiyotni osongina "hazm qilamiz"-u, afsonaviy Herakl, Yason, Axilles yoki Ali bobo va qirq qaroqchi haqidagi filmlarni hayrat bilan ko'ramiz. O'rni kelganda, milliy folklor targ'iboti haqida... O'zbek xalq folklorida yunon yoki rim afsonalaridan qolishmaydigan, aksincha, ulardan bir qadar ustun turadigan afsona, rivoyatlar bisyor. Lekin ularni jahonga olib chiqish u yoqda tursin, o'z xalqimizga ham tuzukroq tanishtira olmayotgandekmiz.

X U L O S A

O'zbekiston milliy istiqlolga erishgach, ma'naviyatga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Vazirlar mahkamasining «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da yoshlarni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash, ular ongida madaniy merosimizga mehr va hurmat xislarini shakllantirish vazifalari asosiy maqsad qilib belgilanadi. Shu jihatlarga ko'ra e'tirof etish joizki, tadqiqot uchun tanlangan mavzu g'oyat muhim va dolzarb bo'lib, ishda quyidagicha xulosalarga kelindi:

- Mifologiya insoniyat badiiy tafakkurning ibtidosi sifatida olib qaraladi. U o'ziga xos qarashlar tizimi sifatida qadimgi ajdodlarimizning voqelikka qarashidagi eng umumiy, eng mushtarak yo'ldir;
- Mifologiyaning inson hayotidagi asosiy vazifasi turli voqea, hodisa va narsalarni izohlash xususiyati bo'lmaganda edi, u mifologiyani xayolida ham bo'ysundirishga erisha olmagan bo'ladi;
- Garchi mif og'zaki yaratilib, unda ham variantlilik, anonimlik mavjud bo'lsa-da, u folklor janri bo'la olmaydi. Chunki u voqelikni badiiy aks ettirmaydi;
- Miflar folklor janrlarining boyishi, rivoji uchun imkoniyat yaratib bergan va qisman o'zlari ham folklor janrlari tarkibiga singib ketgan;
- Mifologik obrazlar ajdodlarimizning diniy dunyoqarashlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, bunday dunyoqarash, ya'ni animistik va totemistik tasavvurlar Markaziy Osiyo, umuman, turkiy xalqlarda qadim-qadimdan to bugungi kunimizgacha xalq bitiklari, dostonlari, ertaklari va urfu-an'analari orqali yashab kelmoqda;
- Tabiiy hodisalar – yorug'lik, zulmat, bo'ron, sovuqlik, issiqlik, zilzila, yong'in, suv bosishi, vulqonlarning otilishi kabilar ajdodlarimizning tasavvurida Zoomorfik (hayvoniy shakl), Antropomorfik (insoniy shakl) qiyofasidagi ilohiy kuchlar harakati bilan bog'liq deb qaralgan;

- Shu asoslarga ko'ra, qadimiy xalq ertak va dostonlarida mifologik obrazlar Zulmat, Sovuq, Kasallik va O'lim yoki Yorug'lik, Iliqlik, Salomatlik va Abadiy hayot timsoli sifatida tasvirlanadi.

- Mifologik yovuz kuchlar ertakda ikki xil qiyofada bitmas-tuganmas ziddiyatga asos bo'luvchi obrazlar vazifasini o'taydilar:

a) mifologik qiyofadagi yovuz kuchlar – deb, ajdar, jin, alvasti va hokazo;

b) antropologik qiyofadagi obrazlar – pari, yalmog'iz kampir va shu kabilar.

- “Beovulf” asarida mifologik obraz sifatida daxshatli maxluq tasvirlangan. Bu negativ mif ijobiy obraz bo'lgan Beovulf bilan qarama-qarshilikda yaratilgan bo'lib, mifologiyaning eng asosiy motivlaridan bir-yovuzlikka qarshi bo'lgan ijobiy obrazlarning g'alabasi dostonning asosini tashkil qiladi

- “Beovulf” va “Alpomish” dostonlarida uchraydigan miflarni klassifikatsiya qilar ekanmiz, qadimgi mifologik motivlar va obrazlarga asosan holda ularni uch qavatli olam modeliga bo'lish mumkin. Bu uch qavatli olam modelini gavdalantiradigan obrazlar: *Tangri; Yer-suv; O't-suv; Tog'; O'rmon* kul'tlaridir.

Demak, dostonlarda aksariyat ijobiy obrazlar bilan birga yozuv personajlar-ajdaho, dev, yalmog'iz, jodugar kampir, odamxo'r kabi bir qator obrazlar silsilasiga ham duch kelamiz. Ularda hikoya qilinishicha olis safarda xatarli yo'llarni bosib o'tayotgan mard va jasur pahlavon qarshisidan kutilmagan va kutilgan hollarda vahima kelbat mahluq chiqadi. Doston mazmunida pahlavon albatta, mahluqni yengib, o'z vatanini ozod qilib, eson-omonlikda yashaydi va albatta, shunday bo'ladi ham. Xalq og'zaki ijodida haqiqatning qaror topishi uning intihosidan darakdir.

Ta'kidlash joizki, ko'pgina tadqiqotlar mifologik obrazlar talqiniga bag'ishlangan bo'lsa – da, bu mavzu hozirgi paytda yanada jiddiyroq, kengroq, chuqurroq va xolis o'rganilishni taqozo etmoqda.

Hozirgi vaqtda folklor asarlariga ,xususan turkiy mifologiyaga ko'plab adabiyotshunoslar ,tarixchilar boy adabiy material manbai sifatida murojaat

qilmoqdalar. Talabalar va o'quvchilar o'tmish ma'naviyatimiz bilan tanishishda turkiy mifologiyani o'sha o'tmish zamonlarning tafakkur olamida ro'y bergan "eng noyob namunasi" sifatida o'rganadilar.

Xalq og'zaki badiiy ijodi milliy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida juda katta ijtimoiy qiymatga ega. U xalqning tarixi, maishati, urf odatlari, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari, orzuumidlari haqida keng bilim beradi. Unda xalq badiiy didi, voqelikka nisbatan xalqona estetik munosabat ifodalangan. Estetik sezgilar rivojida, go'zallikni, badiiy so'z qadri va qimmatini, ona tili boyliklarini his qilishda uning ahamiyati beqiyosdir. Folklor professional san'at turlari — adabiyot, teatr, musiqa, kino va boshqa taraqqiyotida muhim rol o'ynadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 5ta muhim tashabbusi bo'yicha videoselektor. 19 mart,2019 yil
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch.-T.:Ma'naviyat, 2008.176-b
3. Karimov I. A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori (Oliy Majlisning 7-chaqiriq IX sessiyasida so'zlangan nutqi). –T.: Sharq, 1997.144-b.
4. Karimov I. A. O'zbekiston milliy istiqlol-iqtisod, siyosat, mafkura – Toshkent: "O'zbekiston". 1993.521-b. 52
5. Karimov I. A. O'zbekiston Respublikasi va iqtisod, falsafa, huquq, ratix tilshunoslik, adabiyot shunoslik bo'lishlariga qarashli milliy tashkilotlar jamoalarining umumiy nutqida so'zlagan nutqidan. Xalq so'zi. 1992. 9 – iyul.
6. Avdiyev V. I. Qadimgi Sharq tarixi. – Toshkent: O'zbekiton. 1964.841-b.
7. Afzalov M. I. O'zbek xalq ertaklari haqida. Toshkent "Fan" 1964.120-b.
8. "Avesto" /Asqar Mahkam tarjimasi //"San'at". 1991. №5.16-20-b.
9. Veselobskiy A. N. Istoricheskoya poetika. – Moskva:Vish. Shk,1989.456-b.
10. Imomov K. O'zbek xalq prozasi.- Toshkent:"Fan".1981.224-b.
10. Jo'rayev U. Saidjonov I. Dunyo dinlari tarixi. -Toshkent: Sharq, 1998.153-b.
11. Jumayeva S. Xalq ertaklarida obrazlar talqini. –T.: Fan, 2012. –90 b.
12. Jumayeva S. Hayvonlar haqidagi ertaklarning syujet va motivlari. O'zbek tili va adabiyoti. 1996. №5.
13. Jalolov G. O'zbek xalq ertaklari poetikasi. –Toshkent: "Fan" 1976.240-b.
14. Eshonqulov J. Dev obrazining badiiy tasviri. O'zbek tili va adabiyoti. 1997. №3.20-23-b.
- 15.Karimov B. O'zbek xalq ertaklarining ba'zi bir xususiyatlari haqida. O'zbek tili va adabiyoti. 1995. №5-6. 57-62-bet.
- 16.Razzoqov X. Mirzayev T. Sobirov O. Imomov K. O'zbek xalq og'zaki poyetik ijodi. – Toshkent: "O'qituvchi". 1990. 320-b. 53
17. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1 – tom. - Toshkent: "Fan" 1977.420-b.

18. Qayumov O. Pari obrazining genezisiga doir. O'zbek tili va adabiyoti. 1998. №4.14-15-b.
19. Haytun D. E. Totemizm ego sushnosti proisxojudenue. Stalin:1958.151-b.
20. Imomov K. O'zbek folklori ocherklari. Uch tomlik. 2-tom. T. Fan. 1989.320-b.
21. Sokolova Z. P. Kult jivotnix v religiyax. – M. : Nauka. 1972.
22. Kosben M. O. Ibtidoiy madaniyat tarixidan ocherklar. – T.: Fan. 1960.242-b.
23. Bertels A. N. Peri // Kultura i iskusstvo narodov sredney azii b drebnosti i srednevekobe. M. 1979.456-b.
24. Rahmonov H. A. Urxun – Enisey yodnomalari va turkiy eposlar. Filol. fan. d-ri ilmiy daraja olish uchun yozilgan diss. – T.: 1991.293-b.
25. Qayumov A. Qadimiyat obidalari. T.: Fan . 1972.210-b.
26. Jirmunskiy V.M.,Zarifov X.T.Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos, M.,1947.25-b
27. Obidov T.Dorbozlar qissasi.-T., 1963.13-b
28. O'zbek folklori ocherklari, 1— 2j.lar, -T., 1988—1989.56-b
29. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi,-T.,1990, 27-b.
30. Abdullayev R., Obryadovaya muzika Sentralnoy Azii, T.,1994.49-b
31. Ibrohimov O., O'zbek xalq musiqa ijodi,Alpomish,T., 1999. 45-57-b.
32. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalq_ijodi
- 33.<http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/jabbor-eshonqul-folklor-millatning-boqiy-tarixi.html>
- 34.<http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/alpomish-ozbek-xalq-qahramonlik-dostoni.html>
- 35.<http://hozir.org/ozbek-xalq-ogzaki-ijodining-janrlari-xalq-dostonlari-alpomish.html>